

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 372.1
Q-56

BURXONOVA FLORA

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLIM TA'LIMOTIDA
IJTIMOIV-PEDAGOGIK G'OYALAR TARIXI

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ilmiy rahbar –
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent N.S.Kiyamov

Samarqand – 2012

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI

BURXONOVA FLORA

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA
IJTIMOIY-PEDAGOGIK G'OYALAR TARIXI

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

“Himoyaga tavsiya etaman”

Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent _____N.S.Kiyamov

« _____ » _____ 20__ yil

“Himoyaga ruxsat berildi”

Kafedra mudiri: dotsent _____K.Hasanova

« _____ » _____ 20__ yil

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK G'OYALAR TARIXI

MUNDARIJA

KIRISH	4
I-BOB. O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA DINIY TA'LIMOTLARNI O'RGANISH NAZARIYASI	10
1.1. O'zbek xalq pedagogikasida milliy g'oyalar ta'limoti	10
1.2. O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalarining rivojlanish asoslari	19
1.3. O'zbek xalq pedagogikasi va diniy ta'limotlarning ijtimoiy tavsifi	30
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	40
II-BOB. XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTI NAZARIYASINING MAZMUNI	42
2.1. Xalq an'analarining rivojlanish mazmuni va xususiyatlari	42
2.2. Xalq pedagogikasi va islom dini manbalarining tarbiyaviy roli	51
2.3. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalarini tahlil etishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari	62
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	66
UMUMIY XULOSALAR	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	71

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl - nasabini, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan Vatanining tarixini, an'analarini, urf - odatlarini bilishni istaydi.

Gazetalarda, jurnallarda yoki televideniye orqali oila muammolari. yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy hayot bilan bog'liq masalalar muntazam ravishda muhokama etilib bormoqda.

Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni bajarish barcha fuqarolarning ishiga, ya'ni umumxalq, umummillat ishiga aylandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatning strategik maqsadi - taraqqiy etgan demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi bo'lib qoldi. Uzluksiz ta'lim turlari to'g'risidagi Nizomlar hayotga tatbiq etilmoqda. Uzluksiz va uzviy ta'lim jarayoni uchun Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini joriy etish tartibi belgilandi va mexanizmlari ishlab chiqildi:

Birinchidan, amalga oshirilgan chora - tadbirlar ijtimoiy - siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qildi, mamlakatda mavjud muhitni tamoman o'zgartirib yubordi.

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtirdi.

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib keldi.

To'rtinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizning yangi ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hayotimizning barcha jabhalarida shaharlarimiz, qishloqlarimiz, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning butun boshli yirik tarmoqlarida kishini lol qoldiradigan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bir so'z bilan aytganda, yangilanish, islohotlar jarayoni amalda turmushimizning deyarli barcha siyosiy, ijtimoiy - ma'naviy, iqtisodiy, sohalari, jamiyat va davlat qurilishi sohalarini qamrab olmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Agar xalqimiz tarixiga nazar soladigan bo'lsak, eng bebaho an'analar: vijdonlilik, to'g'rilik, tartib - intizom, xushmuomalalik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va burch majburiyatlarini his qilish kabi fazilatlar, avvalo oilada, mahallada shakllanishini ko'ramiz. Shu bois buyuk bobolar, aziz - avliyolar merosini asrab - avaylab kelayotgan, ularning hayotbaxsh o'g'itlari asosida o'z milliy qadriyatlarini shakllantirib, avlodlarini shu ruhda tarbiyalayotgan mehnatkash, zahmatkash xalqimizga mansub ekanimizdan har birimiz cheksiz faxrlanishimiz, unga ta'zim bajo keltirishimiz ham farz, ham qarzdir.

Ammo bir haqiqatni chuqur anglab olish darkor: har bir inson, oila, qolaversa, butun elimizning baxtu saodati, jamiyatimizning barqarorligi ko'p jihatdan odamzod tayanib yashaydigan g'oya va maslakning qanchalik to'g'ri va insoniyligiga, bu e'tiqod uning oilasi, farzandlari, xalqining ezgu maqsadlariga, hayotiy manfaatlariga nechog'li mos kelishiga uzviy bog'liqdir.

Shakllanayotgan milliy istiqloq mafkurasi millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan aks ettirmog'i zarur. Toki har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa olsin.

Ta'lim tizimida eng muhim, eng dolzarb vazifa - jamiyat a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Biz barcha islohotlarni hayotga tatbiq etishda o'tmishimizni teran his etib, halqimizning ruhiyatini uning tarixiy va milliy o'ziga xos jihatlarini, an'ana va urf-odatlarini, ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimizni, Sharq falsafasidan bahramand bo'lib, O'zbekistonning buyuk xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixi davomida to'plagan fazilatlarini imkon qadar inobatga olgan holda ish tutmog'imiz zarur. Buyuk mutafakkirlarimiz

Ahmad al-Farg'oniy, Muhammad al-Xorazmiy, Muslihiddin Sa'di Sheroziy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Forobiy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Imom at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning boy merosi hozir ham jahonshumul ahamiyatga egadir.

Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik - bu ijtimoiy sohadagi asosiy vazifalarimizdandir.

Kelajagi buyuk davlatni sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi ishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bolalarni tarbiyalashda jamoat tashkilotlari va maktablar tomonidan qo'llanib kelinayotgan boy va rang-barang tajribalar bor. Biroq bolalar ko'p vaqtlarini oilada o'tkazadilar, bu o'rinda esa xalq tarbiyasi amaliyotining ahamiyati katta.

Xalq pedagogikasi materiallarini o'rganish va ulardan o'quvchi - yoshlarni tarbiyalashda qudratli vosita sifatida foydalanish hozirgi kunda muhim rol o'ynaydi.

Muammoning pedagogik yechimi esa xalq pedagogikasini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Biroq xalq pedagogikasi yordamida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash faqatgina dars mashg'ulotlari bilangina cheklanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish, uning mazmuni, shakli va uslubini takomillashtirishni taqozo etadiki, bu masalalar hali yetarli darajada o'rganilmagan va o'zlashtirilmagan.

Insonparvarlik va demokratizm, ayniqsa, diniy ta'limot xalq pedagogikasida yuqori o'rin egallaydi. Shuningdek, u to'la ma'noda xalq ommasi manfaatlarini ifodalab, xalq tarbiyaviy an'alarini - butun tarbiyaviy jarayonlarni qamrab olib,

muqaddas dinimizni xalq tarixi, xalq falsafasi va xalq tibbiyotidan, tafakkuri va o'ylaridan alohida ajratib olingan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xalq pedagogikasi sohasida faoliyat yuritgan mutafakkirlarning asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelayotgan fikrlari, jahon tarbiyashunoslik fanining o'rta asrlar va yangi zamondagi namoyandalari qarashlari ham milliy istiqloq mafkurasi tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular tomonidan ilgari surilgan tarbiyaviy-falsafiy hikmatlar, ta'limotlar, dialektik fikrlar, gumanistik g'oyalar ham milliy istiqloq mafkurasining umuminsoniy asoslaridir.

Mashhur olimlarimiz A.Erkayev, Z.F.Mirtursunov, B.O.Qodirov, O.U.Xasanboyeva, O.Musurmanova, S.Isayev, E.Mirzaxonov, R.Raximova, Q.Qodirovlar o'zbek xalq pedagogikasi va mazkur sohada diniy qadriyatlarimizning rolini ochishga katta ilmiy hissa qo'shdilar.

Tadqiqot mavzusi, nazariy jihatlarini ishlab chiqishda biz xalq pedagogikasi muammolari bo'yicha - G.N.Volkov, B.O.Qodirov, Z.F.Mirtursunov, S.X.Temurova, A.I.Musurmonov, X.Bobomirzayev, Z.Baubekova; pedagogika tarixi bo'yicha - S.R.Rajabov, R.Sh.Aleuova, Z.B.Ahrorova, M.E.Ahmedova, F.A.Babashev, K.Yu.Qilicheva, Q.B.Qodirov; tarbiya nazariyasi bo'yicha - R.A.Mavlonova, O.Musurmonova, A.Abduqodirov, A.Munavvarov, M.E.Haydarov va boshqa olimlarimizning ilmiy ishlari asosida olib bordik.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning mavjudligini asoslash hamda uning mazmunini tadqiq etish va pedagogik xulosalar tayyorlashdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti. Xalq pedagogikasi bo'yicha ilmiy asarlar, tadqiqotlar, darsliklari, ta'lim muassalaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlar.

Tadqiqotning predmeti. O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalarning mazmuni va shakllari, ulardagi milliy va diniy hamda ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari.

Tadqiqot vazifalari :

- O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalarining yuksalish jarayonlarini ochib berish va rivojlanishini asoslash;
- O'zbek xalq pedagogikasi va diniy ta'limotlarga tavsif berish;
- xalq an'analarining rivojlanish xarakterini asoslash;
- xalq pedagogikasi g'oyalarida mavjud bo'lgan insonparvarlik tarbiyasi sifatlarini aniqlash va o'rganish;
- tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari tashkil etish;
- tadqiqot yakunlariga oid pedagogik xulosalar tayyorlash.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Farmonlari, qarorlari, ma'ruzalari, asarlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Hay'at qarorlari, ta'lim muassasalarining o'quv va tarbiyaviy faoliyati hamda uslubiy ko'rsatmalarni amalda qo'llashga oid buyruqlari, me'yoriy hujjatlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari: adabiy manbalar, arxiv xujjatlarini o'rganish; xalq ijodining ijobiy tajribalarini, maktabdagi ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik an'analar turlarini o'rganish va umumlashtirish; pedagogik kuzatishlar, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan yakka va jamoaviy suhbatlar o'tkazish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalarining yuksalish jarayonlari va rivojlanishi asoslandi; o'zbek xalq pedagogikasi va diniy ta'limotlarga tavsif berildi; xalq an'analarining rivojlanish xarakteri asoslandi; tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va yakunlariga oid pedagogik xulosalar tayyorlandi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti g'oyalarini pedagogik jihatdan o'rganish tizimi uchun qo'shimcha ma'lumotlar yig'ildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. birinchidan, xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish ko'p millatli xalq pedagogikasi tarixida o'zbek xalq an'analarining tutgan o'rnini aniqlash imkonini beradi; ikkinchidan, xalq pedagogikasi g'oyalarini ilmiy

tahlil qilish va obyektiv baholash pedagogika tarixi, ya'ni uning asosiy qismi bo'lgan etnopedagogika bo'yicha nazariyalarning keyingi rivojiga yo'l ochadi; uchinchi, xalq pedagogikasi va islom ta'limoti o'rtasidagi ilmiy bog'liqlik manbalari o'rganiladi hamda tahlil qilinadi.

Ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi). Dissertatsiya A.Navoiy nomidagi Samarqand DU Pedagogika fakulteti Ilmiy kengashi va Pedagogika kafedrasida umumiy yig'ilishlarida muhokama etilgan. Tadqiqotning olib borilishi yuzasidan A.Navoiy nomidagi Samarqand DU Pedagogika fakulteti professor-o'qituvchilari va talabalari jalb etilgan holda 2011 yil noyabr-dekabr oylarida tajriba-sinovlar o'tkazilgan. Mazkur dissertatsiya 2012 yil 15-mayda Pedagogika kafedrasida (№ 7, 2012.) yig'ilishi qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi: Tadqiqot jarayoni va natijalari asosida respublika matbuotida ilmiy konferensiyalarda 2 ta maqola e'lon qilingan.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalari rivojlanishining asoslari;
2. O'zbek xalq pedagogikasi va diniy ta'limotlar tavsifi;
3. Xalq an'analarining rivojlanish xususiyatlari;
4. Tadqiqot yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari;
5. Tadqiqot yakunlariga oid tayyorlangan pedagogik xulosalar.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, ikkita bob, boblarga xulosalar, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 74 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA DINIY TA'LIMOTLARNI O'RGANISH NAZARIYASI

1.1. O'zbek xalq pedagogikasida milliy g'oyalar ta'limoti

Tarbiya jarayoni qadim zamonlardan boshlab, o'zbek mutafakkirlarining asarlarida o'z aksini topgan. Ular orasida o'zining ilmiy merosi bilan O'rta Osiyoda shuhrat qozongan buyuk olim va mutafakkir, Sirdaryo yoqasida yashagan Abu Nosir Forobiy ajralib turadi.

Forobiy ahloqiy muammolarni hal qilish bo'yicha keng yoyilgan an'anaviy, etnik tushunchalarga qarshi turdi. Uning fikricha, inson o'z hatti - harakatlari va faoliyati bo'yicha erkin bo'lib, uning ijobiy va salbiy tomonlari o'sha odamning o'ziga, atrofdagilarga bog'liqdir. Insonning ahloqiy qiyofasi ijtimoiy muhit bilan, uning taqdiri va boshqa xususiyatlari o'zi tarbiyalangan jamiyat bilan bog'liqdir.

Forobiyning bu fikrlari chet davlatlari, xususan Yevropa davlatlaridagi ba'zi ta'limot asoschilarining fikrlaridan ancha ilgariroq aytilganligi o'lkamizda ilm-fan taraqqiyotidan darak beradi. Tevarak - atrofdagilarning ta'siri ostida bir qancha kishilar yaxshi fazilatlarga ega bo'lsalar, bir qanchalari yomon odatlarga o'rganadilar.

Forobiy o'zining ahloqiy ta'limotida kishilarning ijodiy imkoniiyatlarini ishga solish, ularning mehnat faoliyatlarini, yuksak fikrlar bilan faoliyat yuritishlarini baxt deb biladi va baxt toifasini yaxshilik va yomonlik tushunchalari bilan bog'laydi.

Olim ta'limoticha, yaxshi va yomon qotib qolgan, o'zgarmas toifalar emas, balki kishilarning o'z tushunchalari, ularning xohish, intilishlari bilan bog'liqdir, degan xulosalar qiladi. Shaxsning intilishini u yaxshi deb biladi, olim fikricha yaxshilik va yomonlik tushunchalari insondan tashqarida bo'lishi mumkin emas, ular odamning intilish va hatti - harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bu intilishlar tarbiya, amaldagi davlat qonunlari, an'analardan kelib chiqqan holda bir xil bo'lishi mumkin. Inson faoliyati va hatti - harakatlarini Forobiy ikki guruhga ajratdi : anglamagan va anglagan guruhga bo'ldi. Odam qiladigan harakat yoki qilmish uning xohishiga va

ishonch e'tiqodiga bog'liq bo'lib, foydali bo'lishi va insonga baxt-saodat keltirishi mumkin. Forobiy fikricha, inson tanlash qobiliyatiga ega va bu uni yaxshi va yomonni, go'zal va xunuklikni fikrlash imkonini beradi. Inson hamma narsaga faqat o'z tanlash fikri orqaligina erishishi mumkin.

Forobiy insonda uquvning paydo bo'lishi va shakllanishi xususida qiziq fikrlarni bayon qiladi. O'zining «Fusul ul Maydon» asarida yozadi: Ma'lumki inson qobiliyatsiz bo'lib tug'ilmaydi, ayni paytda u hiech vaqt tikuvchi yoki hattotlik qobiliyati bilan tavallud topmaydi, biroq har bir odamda u yoki bu turiga, u yoki bu xususiyatlarini o'zlashtirib olishga mos qobiliyat bo'ladi, egallab olishga layoqati bo'ladi. Xuddi shuning uchun inson bolalik chog'laridan boshlab yozish, chizish va boshqa o'ziga qulay bo'lgan hunarni tanlaydi va shu bo'yicha faoliyat yuritishga intiladi. Forobiy kasbiy mahoratga erishishga odatlar orqali erishib boriladi, deb hisoblaydi, uning fikricha odam odatlar orqali hatti -harakatning boshqacharoq, o'ziga qulayroq holatiga o'tadi. Uning xususiyati ham ma'lum davrdan keyin butunlay o'zgarishi mumkin.

Bundan tashqari Forobiy ahloqiy tushunchalarning bir qanchasini izohlaydi, ularni sharhlab aqllilik, jasurlik, kuzatuvchanlik, donolik va solihlik bilan so'zlash kabi ijobiy fazilatlar haqida to'xtaladi, shuningdek, qalb o'likligi, farqsizlik kabi bir qancha salbiy xususiyatlar haqida fikr yuritadi.

XIII asrning yirik vakillaridan biri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy o'zining ta'limotida ko'rsatib o'tishicha, insondagi ahloqiy xususiyatlar aksincha insonlar bilan o'zaro munosobatlarda rivojlanadi. O'zining "Bo'ston", "Guliston" va boshqa asarlarida u ahloqiy tarbiyaga katta o'rin ajratib, inson hayotida eng muhimi mehnat ekanligini ta'kidlaydi, mehnat odamni ulug'lashini aytadi. Shu bois yoshlarga murojaat etib: "o'zing va boshqalar uchun mehnat qilgil", deb ta'kidlaydi.

Sa'diy bolalarni tarbiyalash masalasida ota-onalarga ibratli maslahatlar beradi. Farzandlarni vijdonan mehnat qildirishga, ularga ma'lum bir kasb sirlarini o'rgatishga chaqiradi. Bolalarda insonparvarlik hissiyotlarini tarbiyalashni maslahat

berib, “sen odamlarda yaxshi xotira qoldiray desang, farzandlaringni yaxshilikka, yaxshi ishlar qilishga o’rgatgin, ularga nisbatan talabchan bo’lgin” deb nasihat qiladi.

O’tmish ulug’larining tarbiya bo’yicha an’analarini davom ettirgan holda u o’z asarlarida adolatsizlikka, zulum va zo’ravonlikka qarshi chiqdi, jamiyatda qanday o’rin tutishlaridan qat’iy nazar barcha odamlarni bir - biriga nisbatan g’amxo’r, mehribon va samimiy bo’lishga chaqirdi. Sa’diy o’z hayotini yaxshiliksiz tasavvur qila olmas edi.

Odamlarga yaxshilik qilish, ularga g’amxo’rlik ko’rsatish, mutafakkir nazarida, eng yuksak ahloqlilik inson hayotining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Sa’diy insonlardagi odob-ahloqning asosiy shartlaridan biri sifatida ularning bir - biriga madaniyatli muomala qilishlari va boshqa fazilatlar namoyish etishlarda deb bildi va xuddi shu masalalarga e’tibor berishni talab qildi. Sa’diyning nuqtai nazaricha, kamtarlik insonning eng yuksak fazilatlaridan biridir. U kamtarlikni keng ma’noda tushunib, uni boshqalarga nisbatan hurmat ma’nosida qabul qildi. Ayni paytda Sa’diy manmanlik, maqtanchoqlik va boshqa shu kabi salbiy xususiyatlarni qattiq tanqid qildi. U aldov, yolg’onchilik va to’g’rilik inson xususiyatlarini yaqqol ifodalovchi belgilar deb hisoblaydi. U aldoqchilik, hiylagarlik va boshqa shu kabi salbiy xususiyatlar xususan hukmron sinflar vakillarining doimiy yo’ldoshi ekanligini qayd etdi. Buyuk mutafakkirning tarbiya masalalari bilan bog’liq boshqa fikrlari ham hozirgi paytda o’z dolzarbligini yo’qotmagan va o’sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda qo’l kelmoqda.

O’rta Osiyoning ulug’ olimi Abu Ali Ibn Sino (980 - 1057 yillar) ham o’z ijodida ahloq tarbiyasiga katta e’tibor berdi. Ibn Sino o’zining “Tib qonunlari” asarida ahloqning aql yaxshiligi va yomonligi, sevgi, sahovati va kamtarlik do’stligi kabi tushunchalarni qo’lladi. U yaxshilik va yomonlikni o’zi qanday tushunishini izohlab o’tdi.

Har bir mavjudot o’z tabiatiga ko’ra olg’a intiladi va rivojlanadi. Yuksaklikka intilgan sari o’zidagi kamchilik nuqsonlardan qutulib boradi. Ijodkor nazarida

kamchiliklardan biri sifatida hamisha yomonlik turadi. Har bir predmetning ikki tarafi: yaxshilik va yomonlik taraflari bor. Ibn Sino fikricha yomonlik narsalarning ichida va tashqarisida mavjud bo'la oladi. Agar yomonlik predmet mohiyatida bo'lsa, olim fikricha, undan osonlik bilan qutulish mumkin. Agar u narsalar tashqaridan mavjud bo'lsa, u voqeyilikning asosi bo'lib hisoblanmaydi. Ibn Sino tushunchasida ahloqiy garmoniya mavjud bo'lib, yomonlik ham ana shu garmoniya tarkibiga kiradi va uning asosiy qismini tashkil etadi. «Yomonlikning ishtiroki shart. Chunki butun dunyo ana shunday o'zaro zarur qarama - qarshiliklardan tuzilgan. Shu bois ham ma'lum bir narsa bir vaqtlarda yaxshi hisoblansa, boshqa narsa boshqa bir davrga kelib yomonlik hisoblanishi mumkin». Masalan: Afyun dorisi oz miqdorda bo'lganda inson uchun foydali hisoblansa, undan ko'p miqdorda foydalanish zarar yetkazadi. Ibn Sino yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ko'rib chiqqandan keyin lazzatlanish va iztirob chekish toifalariga o'tadi. Uning fikricha iztirob bo'lgan joyda yaxshilik bo'lmaydi. Ibn Sino lazzatlanishni ham ikki turga bo'ladi:

1. Quyi formasi - hissiy lazzatlanish.
2. Oliy formasi - ruhiy lazzatlanish.

Ibn Sino nazarida ruhiy lazzatlanish hissiy lazzatlanishdan yuksak turadi. U tushungan holda va aql oladigan lazzatlanish hisoblanadi. Qo'pol qilib aytganda, lazzatlanish va quvonch, yaxshi kiyinish hamda lazzatli ovqat yeyishdan ham kelishi mumkin. Biroq Ibn Sino bu toifani juda teran va keng ma'noda tushunadi. U faqatgina hissiy lazzatlanish olib, ruhiy lazzatlanishni ikkinchi darajaga surgan kishilarga qarshi chiqadi. Uning fikricha inson birinchi navbatda ruhiy barqarorlikka erishishi lozim va shundan so'nggina hissiy lazzatlanishga ham e'tiborini qaratsa bo'ladi.

Ibn Sino nuqtai nazaricha ahloqiy tarbiyada yaxshilik va yomonlik, lazzatlanish va iztirob chekish kabilar muhim rol o'ynaydi. Bu insondagi salbiy xususiyatlarni yomonlik kategoriyasiga qo'shadi. Ibn Sino adolatlilikni muhim ahloqiy kategoriya deb hisoblaydi. Uning nazarida « adolatlilik muhim narsa bo'lib,

u ruhiy lazzat olishni belgilovchi muhim omildir ». Bu xususiyat insondagi uchta muhim fazilat: sabr-toqat, mardlik va donolikdan tug'iladi. Agar inson shunday fazilatlarga ega bo'lsa, u o'zini turli iflosliklardan himoya qila oladi va yaxshi xususiyatlarni yuzaga chiqarib, haqiqiy ruhiy lazzatlanish oladi.

Ibn Sino o'zining "Besh muallim ahloqi" asarida shuni ta'kidlaydiki, har bir inson o'zida sabr-toqat, mardlik, donolik, adolatlilik kabi xususiyatlar asosida ma'naviy va jismoniy irodalilikni qaror toptiradi. U sabr - toqatni insondagi hissiy iroda, mardlikning o'zini tuta bilish, g'azabini boshqara bilish, adolatlilikni esa har ikki fazilatlar bilan bog'lab o'rganadi. Ibn Sino ijobiy kategoriyalar jumlasiga saxiylik, sabrlilik, kamtarlik, sevgi- muhabbat, donolik, bosiqlik, ehtiyotkorlik, prinsiplilik, e'tiqod, yig'inchoqlik, sharm-hayolik, ijrochilik va boshqalarini kiritadi. Sabr-toqat, ko'ngilchanlik va bosiqlikni u insonning hissiyotlarini tushunish fazilatlari turkumiga, o'ylovchanlikni xarakterning o'zini tuta bilish tizimiga, aqllilik, kuzatuvchanlik, sodiqlik, sharm-hayolik, sof ko'ngillilik va boshqa fazilatlarni ham inson bosiqligining muhim belgilari deb hisoblaydi. Ibn Sino inson ruhi «kuchi» tushunchasini eng yaxshi xususiyatli deb hisoblab, ularni kishilardagi boshqacha hatti - harakatlar va faoliyatlarga qarshi qo'yadi. Inson chetlanishi lozim bo'lgan kamchiliklar qatoriga aldamchilik, qasd qilish, shubha, rashq, mahmadonalik, manmanlik, o'ylamasdan ish tutish, irodasizlik va boshqalarni tilga oladi. Ibn Sinoning fikricha, aqllilikka qarama - qarshi turadigan eng katta nuqson bu injiqlikdir. Uning nazarida qo'rqqoqlik - jasurlikka zulmkorlik va rahmsizlik - adolatsizlikka, shubha, gumon, sevgi va do'stlikka qarama - qarshi turadi. Ibn Sino fikricha kishi tarbiyasida turli odatlar muhim rol o'ynaydi. Ibn Sino odatlarni huddi duradgorning san'atiga o'xshatadi, agar odam birinchi darajali duradgor kabi ish qilib o'rgangan bo'lsa, uning ishini chala ustaning sifatsiz qilgan ishi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bunday hodisa ahloqiy kategoriyaga ham taaluqlidir. «Ahloqning yashovchanligi deb hisoblaydi, u, - murabbiy shaxsni shakllantiradigan paytda uning qanday tarbiyalanganligi va odatlarga o'rgatganligiga

bog'liqdir». Ibn Sinoning ushbu fikrini jahon miqiyosida o'tkazilayotgan hozirgi pedagogik tadqiqotlar ham tasdiqlamoqda. Xo'sh, inson yuksak ahloqiy fazilatli bo'lib yetishishi uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun deb maslahat beradi, Ibn Sino tarbiyaviy ishni izchil va to'g'ri tashkil etish, bunda o'zga kishilarning yordamiga ham tayanish lozim. Ibn Sino fikricha bu ishda har bir odamning do'stlari va o'rtoqlari katta rol o'ynaydi. Do'stlik va insonlar o'rtasida birlik bo'lishini istagan har bir shaxs shaxsiyatparastlikka, yolg'onchi do'stlardan haqiqiylikni ajratishni o'rganishi lozim. Olimning tasdiqlashicha, boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'libgina kishi o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, yaxshi tarbiya olishga qodir bo'ladi.

XV asrda o'zidan oldin o'tgan mutaffakirlarning ilg'or fikrlarini davom ettirgan inson bu buyuk shoir va mavlono Abduraxmon Jomiy bo'ldi. Agar Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida turli maqollar, hikmatlar, qochirimlar o'z aksini topgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" hamda "Hirotnomai Iskandar" dostonlarida insonlarning yuksak milliy fazilatlarini jamiyat hayotida katta rol o'ynashi ko'rsatilgan. Jomiy e'tiqodicha, inson o'zining dastlabki poklik holatida qolishga va o'z pokdamonligini buzmaslikka intilish lozim. Jomiy insoniy g'ururni yo'qotish insonni haqoratlaydigan, uni yerga uradigan eng yomon jihat va bu bilan u o'z xalqi oldida javobgardir, deb hisoblagan. U insonlardagi yaxshi fazilatlar tarbiya orqali yuzaga chiqishiga ishonch bilan qarardi.

Jomiy fikricha inson o'z faoliyatiga tanqidiy baho bera bilishi, birinchi navbatda, o'zining kamchiliklarini payqay olishi lozim, shundan so'ngina u boshqalarning nuqsonlarini ham payqab, shu xususda ayta olish xuquqiga ega bo'ladi. Jomiy muallim shaxsiga qat'iy talablar qo'yadi. Boshqalarni tarbiya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kishi, birinchi navbatda o'zi yuksak ahloqli, bilimli bo'lishi, nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi, va albatta o'z xalqiga ijobiy munosabatda bo'lmog'i lozimdir.


Ma'lumki, islomiy dunyoqarash, ma'naviyat va axloq qoidalarining asosini ikki muqaddas hujjat – Allohning kalomi bo'lmish Qur'on Karim va Payg'ambarimiz /s.a.v./ning qilgan ishlari hamda ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari majmui bo'lmish Hadisi shariflar tashkil qiladi.

Tarix xalq xotirasidir. Xotirasiz barkamol inson bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Dunyodagi har bir millat va xalq o'z tarixini mukammal bilishi hamda e'zozlashi kerak. O'tmishni, tarixiy taraqqiyot yo'lini inson avlod-ajdodlari, buyuk allomalar tomonidan yozib qoldirilgan tarixiy asarlarni sinchiklab o'rganish orqali bilib oladi. O'tmishini bilmagan va e'zozlamagan xalqning kelajagi qorong'idir. O'tmish inson uchun allaqachon ortga qaytmas, bo'lib o'tib ketgan, tarix mulkiga aylangan darvlardangina iborat emas, balki ahamiyatini hych qachon yo'qotmaydigan tag zamin, o'q ildimizdir. O'tmish bizning tayanch nuqtamizdir. Ana shu tayanch nuqtaga, ma'naviy poydevorga suyangan, undan kuch quvvat, ruhiy ma'naviy oзуqa olmasak olg'a tomon rivojlana olmaymiz, qaddimizni tiklay olmaydigan, g'ururli, oriyatli xalq bo'la olmaymiz, o'tmishni tiklay olmaymiz. O'tmishsiz kelajak yo'q. O'tmishini sevgan, u bilan faxrlanadigan, uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaydigan, unga dog' tushirmaydigan, undan har doim saboq, o'git olib turadigan xalq va millatni tarix har doim yuksak darajada ulug'laydi. O'tmishga, tarixga hurmat bu madaniy yetuklik, ma'naviy barkamollik belgisidir. Tarix inson aql idroki va tafakkurining shunday bir bebaho hamda mo'jizakor mahsulidirki, uning ma'naviy qudrati yordami bilan biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga go'yoki hamdard, hamnafas bo'lamiz.

Xalqning o'z yaratilgan ildizidan, shajarasidan ajrab qolishi fojining bir ko'rinishidir. Milliylik kabi tushunchalar qadsizlanishining ko'p martalab guvohi bo'lganmiz.

Tarixiy manbani aniqlash, tanlash va nihoyat, uni ilmiy tahlil qilish har qanday ilmiy tadqiqotning, uning katta-kichikligidan qat'iy nazar, dastlabki bosqichi hisoblanadi. Tadqiqot etilmoqchi bo'lgan masalaning talqin etilishi, ilmiy jihatdan

to'g'ri hal etilishi ko'p jihatdan har qanday ilmiy ishning poydevorini tashkil etadigan manbaning sifat va salmog'iga, ya'ni to'laligi va ma'lumotlarga boyligiga bog'liqdir. Yana shuni ham esda tutish lozimki, aniq biron ilmiy masalani tadqiq etishda bir emas, balki bir necha asarga, qolaversa turli xildagi manbalar (rasmiy hujjatlar, solnomalar, geo-kosmografik va biografik asarlar)ga tayanmoq zarur. Bularning qay biri asosiy, qaysinisi yordamchi rol o'ynashi esa tadqiq etilmish masalaning mavzui va xarakteriga bog'liqdir. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o'rganishda rasmiy hujjatlar asosiy manba rolini o'ynaydigan bo'lsa, siyosiy hamda madaniy hayotni yoritib berishda solnomalar (tarixiy asarlar) va biografik hamda adabiy asarlar birinchi o'rinda turadi. Ilmiy tadqiqot olib borishda faqat asosiy hisoblangan manba bilangina kifoyalanib qolmay, ish usullarini ham ko'rib chiqish lozim. Shu maqsadda tadqiqotimizni olib borishda **ilmiy faraz va bosqichlarni** quyidagi ko'rinishga keltirdik:



Qo'lyozma asarlar ustida olib borilgan ko'p yillik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi tarixiy asarlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hamda madaniy hayotga oid qimmatli daliliy ma'lumotlarga ham boydir, rasmiy hujjatlar va biografik asarlarda esa siyosiy tarixga oid qimmatli daliliylarni, tarixiy asarlarda yo'q dalillarni uchratish mumkin.

Keling, uzoqqa bormaylik. Temuriylar davri, tarixi yaqin vaqtlargacha, siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda turli xil tazyiqlarga uchrab keldi. Vaholanki, o'z tariximizning yutuqlarini maqtashda yoki oydinlik kiritishda siyosatni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan hych qanday holat kelib chiqishi mumkin emas edi.

Islom ulamolari har fan va har bir ilmda ko'p g'ayrat bilan tadqiqot amallarini olib borganlar hamda hadislar muhofazasiga katta e'tibor berganlar. Xususan, hadis va usuli hadis fanlarida zo'r ehtiyotkorlik yurgizganlar, har bir hadisni asli va rivoyatini hamda diroyatini, hatto hadis rivoyat qilgan roviylarning mukammal tarjimai hollarini kamol e'tibor bilan tahlil etganlar.

Islom ulamolari har bir hadisi nabaviyni har tomonlama taftish qildilar. Har bir hadisning aytilish sabablarini, sanadlarini aniqladilar, sahih hadislarni g'ayri sahihlardan ayirdilar. Hadis fani uchun maxsus Usuli hadis ilmini joriy etdilar.

Janobi Rasul akram sallolohu alayhi vasallamning davri bo'lgan zamonda bir necha sahobayi kirom va azvaji mutahharotlar faqat hadisi Rasululloh bilan mashg'ul bo'ldilar. U zamonlarda hadislarni kitob holida yozish usuli keng tarqalmagan edi. Sahobalar Rasuli akramdan hadisni qanday eshitgan bo'lsalar shunday holda yodlab olardilar. Rasuli akram huzurida bir necha kishi ayni hadis bilan shug'ullanganlari islom tarixidan ma'lum. Hazrati Abu Hurayra umrlarining ko'p vaqtini hadis yodlashga bag'ishlaganlar.

1.2. O'zbek xalq pedagogikasi milliy g'oyalarining rivojlanish asoslari

Xalqimizning muqaddas e'tiqodi – islom diniga oid boy ma'naviy-madaniy merosini asrab-avaylash, diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy g'oyalari, asarlarini chuqur va har tomonlama o'rganish, tahlil etish va zamonaviy ruhda rivojlantirish, shu sohada ilmiy-nazariy tadqiqotlarni olib borish, zamon talablari darajasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni ta'minlash, ularga bo'lgan shart-sharoitlar yaratish hamda ajdodlarimizdan qolgan noyob manbalar asosida tadqiq etilgan ma'lumotlar bilan xalqimizning diniy savodxonligini oshirish maqsadida 1999 yil 7 aprelda Prezident I.Karimov «Toshkent Islom universitetini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonga imzo chekdi.

Dinshunoslik asoslari, yo'nalishlarini, ilmiy tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayoti va rivojidadagi o'rni bilan bog'liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan davlat va jamoat tashkilotlari, diniy muassasalar oldidagi nazariy va amaliy vazifalarni hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassis – bakalavr va magistrlar tayyorlash hamda mavjud kadrlarning malakasini oshirishni ta'minlash universitetning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

Respublika poytaxtida Islom universitetini tashkil qilish borasidagi mohiyati jihatidan juda e'tiborli bo'lgan Farmonni tezroq hayotga joriy etish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 6 mayda «Toshkent Islom universiteti faoliyatini tashkil qilish to'g'risida» qaror qabul qildi. Hozir ana shu qaror asosida ish yuritilmoqda. Mustaqil Vatanga va milliy istiqlol g'oyalariga sadoqatli hamda islomshunoslik, uning tarixi, huquqi va falsafasi bo'yicha ushbu universitetning uchinchi va undan yuqori kursining iqtidorli talabalari uchun uchta Imom al-Buxoriy davlat stipendiyasi joriy etish vazifasi ham qarorda ko'rsatib o'tilgan.

“Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat

muhim qadam bo'ldi. Eski masjidlar ta'mirlanmoqda va yangilari bunyod qilinmoqda. O'quv yurtlari tarmog'i kengaymoqda. Diniy adabiyotlar nashr etilmoqda". [4-32]

Respublikamiz mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng islohotlarning eng muhim jihatlari hisoblangan ta'lim tizimini rivojlantirish – davlatning kadrlar tayyorlash va ularga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, moddiy bazani shakllantirish va mustahkamlab borishga qaratilgan harakati bilan belgilandi. Shu ma'noda mamlakatimizda ta'lim sohasini kuchaytirishning izchil mexanizmlari yaratildi va tatbiq etila boshlandi.

Ayni paytda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish strategik maqsad sifatida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning poydevoriga aylanmoqda. Ushbu maqsadga erishish jamiyatni demokratlashtirish, yangilash, modernizasiya va isloh qilish bilan bevosita bog'liqdir. Bu bog'liqlik, bizningcha, demokratik jamiyat va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida «davlat kadrlar tayyorlash va ularga bo'lgan ehtiyojni qondirish kafilidir» degan mutlaqo yangi qoida mazmunini kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar natijasida xalqimiz uchun ahamiyatli bo'lgan milliy hamda madaniy an'analar va qadriyatlar hisoblanmish tushunchalarni tadqiq etish hamda tahlil qilish, kelajak avlodga yetkazish borasida shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu borada davlatimizning olib borayotgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo'lib, tom ma'noda, xalqimizning o'tmishi va tarixi davrida yaratilgan xalqchilik, odillik, bag'rikenglik, totuvlik, barqarorlik g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...Shak-shubhasiz, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan salmoqli yutuqlar barchamizniki va ularni hych kim bizdan tortib ololmaydi.

Ayni paytda bugun oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalar o'tgan davr mobaynida barpo etilgan salohiyatdan oqilona foydalanib, bor kuch-qudratimiz, imkoniyat va harakatlarimizni ertangi istiqbolimiz, ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish uchun safarbar etishni talab qiladi.”[7]

Millatimizning yuzaga kelishi, paydo bo'lishi asoslarida albatta umumjamo'a harakati va tenglik g'oyalari yotadi. Tarix silsilalarida qariyb unut bo'lgan siyosiy kurashlar, bitta natijani, ilmdan boshqa najot bo'lmasligi va yo'qligini namoyon qildi. Shuhratparastlik, molparastlik va shuurparastlik oqibatlariga sig'inish, hayot, aniqrog'i tirikchilik deb atalmish safsata yo'lida o'zi uchun rahnamo yaratish kabi illatlarni ham ota-bobolarimiz boshidan o'tkazishdi. Lekin bunyodkorlik negizlarini ko'zlab yuzaga kelgan va hozir ham o'z mavqeini egallashga harakat qilayotgan ilm-fan, texnika, qolaversa ijodkorlik ishlari asrlarda yashab qolish imkoniyati ko'pligini isbotladi.

Shuning uchun ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berish yo'lida salmoqli ishlarni izchillik bilan amalga oshirish kerakligini davr taqozo etib turibdi. Mana shunday bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqyealar misolida ham kuzatish mumkin.

Masalan, Yaponiyadan tarqalgan “AUM Senrikyo” degan diniy oqim vakillarining faoliyatini eslaylik. Ular dunyoning turli mamlakatlaridagi yuzlab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombi - ya'ni manqurtga aylantirib qo'ygani yaxshi ma'lumku. Yoki din niqobi ostida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonga ham kirib kelishga urinayotgan vahobiylik oqimi namoyandalarining zararli kirdikorlarini olaylik. Bu kabi holatlarning qanday mudhish oqibatlarga olib kelishini, menimcha, uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q.

Ko'rinib turibdiki, tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum - bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan, informasiya olamida globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda, ya'ni lo'nda qilib aytganda, jahonning bir chekkasida sodir bo'layotgan voqyealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda, bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. [23-33,34]

Amerikada istiqomat qiladigan turkistonliklar assosiasiyasi prezidenti A.Xoja fikriga ko'ra, davlat tomonidan barcha dinlarning madaniy-tarixiy o'ziga xosliklari va an'anaviy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda rivojlantirishga bir xilda e'tibor ko'rsatilayotgani O'zbekistonning alohida ajralib turadigan qirralaridandir. Uning so'zlariga ko'ra, "turli diniy konfessiyalarning bir me'yorda va to'laqonli faoliyat yuritishi uchun O'zbekistondagidek sharoit jahonning ko'p mamlakatlarida mavjud emas". Uning ta'kidlashicha, dinlararo va madaniyatlararo muloqot ma'nosida O'zbekistonni haqli ravishda jahonning eng bag'rikeng jamiyatlaridan biri, deb hisoblash mumkin. [17]

Ma'lumki, Qur'oni Karimning ellararo va mamlakatlararo mashhur bo'lib ketishiga undan keyin yaratilgan asosiy diniy manba hisoblanmish hadislarning xizmati ulkandir. Ana shu hadislar bayon qilingan kitoblar Qur'oni Karim suralarini sharhlaydi, targ'ib qiladi, qiymatini oshiradi, ahamiyatli va muhim tomonlarini tahlil qilgan holda uni ommalashtirish vazifasini bajaradi.

Bu yo'lda buyuk mutafakkirlarimizning mazmunga boy, keng qamrovga ega bo'lgan tarbiyaviy merosidan to'g'ri hamda oqilona foydalanish, undan namuna olish maqsadida turli yo'nalishdagi o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

Ta'kidlab o'tish lozimki, so'nggi o'n yil – mustaqillik davrida Qur'oni Karim va Hadisi shariflarni o'zbek musulmonlariga ona tilida yetkazish borasida, boshqa

sohalarda bo'lgani kabi, salmoqli ishlar qilindi. Qur'oni Karimning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari chop etilib kitobxonlar qo'liga borib yetdi.

Muborak Hadisi sharif to'plamlari ham /Imom al-Buxoriyning to'rt jildi "as-Sahih" to'plami, Imom at-Termiziyning "Sunan" to'plamining birinchi jildi, "1001 hadis" kabilar/ o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi va xalqimiz, keng jamoatchilik tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

Bu xayrli ishlarning jamiyatimiz hayotidagi ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati ulkanligi shubhasiz, ammo shitob bilan ilgarilab borayotgan hayot olimlarimiz va tarjimonlarimiz oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, minglab oyati karimalar va o'n minglab hadisi shariflar orasidan kerakli mavzusidagisini tez topib olish imkoniyatini yaratish uchun oyat hamda hadislarni mavzular bo'yicha yig'ib taqdim etish zaruriyati tug'ilayapti. Masalan, ularning elektron variantlarini shakllantirish va hok.

Bundan tashqari, shu paytgacha qilingan tarjimalar asosan akademik sifatga ega bo'lib, har bir so'z va ibora aynan tarjima qilingan. Bunda o'zbek tilidagi jumlar ba'zan chigallashib, islom ahkomlari, dinimiz tarixini bilgan odamlarga tushunarli bo'lsa-da, endi o'rganayotgan keng kitobxonlar yoki yoshlar ommasi tomonidan tarbiyaviy taraflarini tushunib olishi uchun qiyinchilik tug'diradi, bu esa oqibat natijada qiziqishni so'ndirib qo'yishi mumkin.

Mana shu mulohazalardan kelib chiqib, Toshkent islom universitetida yana bir xayrli ishga qo'l urildi. Bir guruh mudarris va talabalar alohida mavzular bo'yicha Qur'oni Karim oyatlari va hadisi shariflarni to'plashga va ularning ma'nosini to'la saqlagan holda erkin, ravon, ommabop tarjimalarini tayyorlashga bel bog'lab, kelgusida ularni ixcham kitobchalar shaklida nashr etishni niyat qildilar.

Bunda har bir oyat va hadisning yonida uning arabcha matni va qayerdan olingani to'g'risida ma'lumot berilishi zarur deb topildi. Shuningdek har bir hadisning arabcha matni ostiga shu hadis uchragan manbaning qisqartirilgan nomi va hadisning to'plamdagi raqami ko'rsatiladi.

O'zbek xalq pedagogikasi tarixida juda ko'p didaktik asarlar yaratilib, ularni chuqur o'rganish, ulardagi eng qimmatli fikrlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotga keng tadbiiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid qimmatli asarlar yaratgan, ularning har bir ta'limiy-axloqiy asari bo'lib ma'naviy tarbiya, pedagogik fikrlar ilgari surilgan, ularning tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan.

Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular keng pedagogik jamoatchilik mulkiga aylanib, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, uni hayotga tayyorlash ishida katta yordam berib kelmoqda. Bu pedagogik meros ayniqsa hozirgi ma'naviy qadriyatlar tiklanayotgan bir sharoitda alohida qimmatlidir.

Hozirgi kunda jamiyat ma'naviy rivojining murakkab va ko'p qirrali jarayoni ko'p jihatdan milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi bilan belgilanmoqda. Aynan shu sababli ham ta'lim tizimini isloh qilishdek katta va muhim ishda ajdodlarimiz tomonidan to'plangan yosh avlod tarbiyasiga oid ko'p asrlik tajribadan unumli foydalanish zaruriyati paydo bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotining ko'rsatgichlari shundan dalolat beradiki, shaxs madaniyati hamda pedagogik fikr ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan birgalikda rivojlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar ilg'or pedagogik fikrlarni xalqning ilm-ma'rifatga intilishi, aql va idrok tantanasi, yorqin kelajak haqidagi orzularini yaratibgina qolmay, balki saqlab qolgan va avloddan-avlodga boyitgan holda uzatgan.

Xalqning milliy madaniyati, ma'naviy dunyosi muayyan tarixiy sharoitlarda insoniyat tomonidan uzoq asrlar davomida to'plangan ilg'or fikrlar asosida rivojlangan. Muhimi, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ilgari surilgan buyuk vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ilmiy va ma'naviy saviyasi ko'p jihatdan o'z xalqining ilg'or pedagogik tajribalarini to'liq va chuqur bilishi bilan belgilanadi. O'tmishdagi ijobiy pedagogik tajribalarni o'zlashtirish kasbiy madaniyat, mahoratni egallashda, zamonaviy OTM talabalari

oldida turgan vazifalarni aniqroq his etishga ko'maklashadi. Hozirgi davrda jamiyat a'zolarining ishonch bilan oldinga borishi va buyuk maqsadlarga yetishi yosh avlodning ilmiy salohiyati va umumiy madaniyati, kasbiy malakasining yuqori darajada bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'naviy kamolot, eng avvalo, har bir yoshning aqlu idroki, fikri, bilimi, qobiliyati, iste'dodi, tajribasi va mehnat faoliyatida ifodalanadi. Uning mohiyatini olimlar shunday tushuntiradilar: «... odamni odamiy qilib kelayotgan, insoniyatni insoniy qilib, nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tkazayotgan, yaxshining yomon ustidan, ezgulikning vahshiylik ustidan, hisning hirs ustidan, go'zallikning xunuklik ustidan, nazokatning dag'allik ustidan, vijdonning nafs ustidan, donolikning jaholat ustidan, vafoning bevafoqlik ustidan, subutilikning beburdlik ustidan, sadoqatning xiyonatu sotqinlik ustidan, iymonning e'tiqodsizlik ustidan, dinning xurofot ustidan g'alabasini ta'minlab kelayotgan pokiza ruhli buyuk zotlardir». Haqiqatan ham har bir insonning faolligi, mas'uliyatni his etishi, o'z burchini anglay bilishi uning ma'naviy kamoloti bilan belgilanadi. [11]

Mustaqil, dahlsiz jamiyat barpo etilishi bilan yoshlar ma'naviyati tobora rivojlanishi, talabalarga xulq-atvorning ma'naviy me'yorlari inson xulqi tashqi tomoni, uning ichki ma'naviy olami, insonning yuksak ma'naviyati orqali boshqarilishi, e'tiqodga asoslanishi; huquqiy me'yorlar esa, avvalo, inson hulqining tashqi tomoniga qaratilishi, muqarrar majburlashni o'z ichiga olishini talaba-yoshlar tushunib yetishlari bu me'yorlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Talabalar o'zlashtirishda qiynaladigan yana bir holat ma'naviy me'yorlar tarkibi bilan bog'liq tushunchalardir. Ma'lumki, «Yolg'on gapirma!», «O'g'rilik qilma!», «Qo'pollik qilma!» kabi taqiqlash va «Halol bo'l!», «Adolatli bo'l!», «Mustaqillik ishiga sodiq qol!» kabi namunalar ma'naviy talablarning ikki tomoni, ular xulq-atvorning yo'l qo'yiladigan va yo'l qo'yib bo'lmaydigan variantlari o'rtasidagi chegarani hosil qiladi. Haqiqiy qoidalarda taqiqlash ustuvorlik qiladi. Ma'naviy sifatlar esa nafaqat insonni yo'l qo'yilmaydigan xatti-harakatlardan

chetlaydi, balki qanday yo'l tutishni ham ko'rsatadi, barchaga namuna bo'ladi. Talabalarning javoblarida taqiqlashga ham, namunaga ham murojaat etiladi. Biroq namunani ko'rgazmali misollar bilan tushuntirish u qadar yorqin va asoslangan emas. Qolaversa, ma'naviy me'yorlarning bu ikki yaxlit tizimi hych qanday aloqasiz, insonga parallel qo'yiladigan, na maqsad birligi, na aynan bir natijani ko'zda tutmagan talablar sifatida qaraladi. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchilar o'z e'tiborini kuchaytirishi lozim.

Mamnuniyat bilan ta'kidlash mumkinki, «ezgulik» va «yovuzlik» kabi tushunchalar talabalarning shaxsiy tajribasi bilan yaqinroq bo'lib, ma'naviyat tushunchasiga ko'ra osonroq o'zlashtiriladi. Talabalarning javoblaridan namunalar keltiramiz: «Ezgulik – bizning tuzum, u bizni barcha zarur narsa bilan ta'minlaydi. Ilgari bunday bo'lmagan». «Ezgulik – yaxshi tilak, xushmuomalalik, insonlarga nisbatan muloyimlik», «Ezgulik – bu halol, talabchan bo'lish, biroq ko'ngil bo'shlik emas», «Ezgulik – samimiyat – ochiq ko'ngillilik», «Yovuzlik – bu hasad, g'azab, xudbinlik», «Yomonlik – xasislik, qahr, ichkilikbozlik, yolg'onchilik», «Yomonlik – bir-biriga nisbatan madaniyatsiz munosabat», «Yomonlik–laganbardorlik va ikki yuzlamachilik», «Yomonlik – tuhmat, haqorat, insonlar bilan kelisha olmaslik», «Yomonlik – jizzakilik, o'zini bosa olmaslik» va shu kabilar.

Bu kabi sog'lom fikrli, shaxsiy kechinmalarga asoslangan baholarni deyarli barcha respondentlar bayon qilishdi. Biroq bu o'rinda ham kamchiliklar bo'lib, ularni tugatish ustida jiddiy ish olib borish kerak. Gap shundaki, deyarli hych bir talaba yaxshilik va ezgulikni bir-biridan farqlamaydi. Bu, birinchidan, ezgulik ham, yaxshilik ham inson faoliyati davomidagi o'ziga xos sifat bo'lib, ijtimoiy amaliyot darajasiga mos keladi, uning chegaralari aynan o'xshash; ikkinchidan, har ikkisi ham bir tushuncha – «yomonlikka» qarshi turadi. Biroq ezgulik va yaxshilik aynan bir narsa emas, zero yaxshilik va yomonlik xatti-harakatlar bir tuyg'u sifatida namoyon bo'lsa, ezgulik ularning natijasini belgilaydi, ko'pincha ular mavjud, ichki boshqaruv ijtimoiy munosabatlar emas, balki tabiiy kuchlar tomonidan yaralgan, bilish

imkoniyati chegarasidan uzoqda, demak bilib bo'lmaydi, degan ishonchga olib keladi. Olingan javoblardan ko'rinadiki, talabalarning ezgulik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari adabiyot, pedagogika, ijtimoiy pedagogika, psixologiya, ma'naviy, pedagogik meros ta'sirida, shaxslararo munosabatlar darajasida rivojlanadi.

Talabalar tomonidan «adolat» tushunchasining o'zlashtirilishida ham ma'lum qiyinchiliklar mavjud bo'lib, u jiddiy kamchiliklardan holi emas. To'g'ri, ko'pchilik talabalar nafaqat «adolat» so'zini to'g'ri, o'rinli qo'llaydi, balki muhim hayotiy vaziyatlarga asoslanib, bu tushunchaga xos bo'lgan u yoki bu qirralarini ham ifodalay oladi: «Adolat – qonunlarimiz, xulq– atvor me'yorlari, odamlar orasida insoniy munosabatlarga rioya qilish», «Adolatsizlik–insonning jamiyatda xizmatiga yarasha haq olmasligi, o'z xizmatlarini baholash huquqi ham bo'lishi mumkin». «Adolatli bo'lish, inson mehnati, xizmatlarini to'g'ri baholash demakdir», «Adolat – insonga to'g'ri yondashish, menga past ball qo'yildi, o'qituvchiga o'z nuqtai nazarimni tushuntirdim. Xato to'g'rilandi. Adolat g'alaba qildi».

Adolatning ma'nosini oddiy va to'g'ri aks ettirgan bu kabi javoblar ko'p bo'ldi. Ular orasida adolatni unga qarama–qarshi tushuncha adolatsizlikka misol keltirib ta'riflashga urinish ehtirosi ham ko'zga tashlanadi: «Adolatsizlik – talaba qilmagan ishi uchun dakki olishi», «Talaba o'qishga kirdi, betob bo'lib, kasalxonada yotdi, uni talabalar safidan chiqarishdi, bu adolatsizlik» va hokazo.

«Burch», «vijdon», «majburiyat» va «ma'naviy javobgarlik» tushunchalarini talabalar yaxshi tushunadilar. Olingan javoblarning asosiy qismi ularni tushunchaga ega ekanligidan dalolat beradi. Inson Vatanni himoya qilish, yaxshi o'qish, halol ishlashga qo'rqqanidan majbur bo'lishi kerak emas, balki vijdonan buni qilishi lozim, «Burch majburlikdan emas, ixtiyoriy, ongli bajarilishi lozim bo'lgan ishlar», «Burchlar – o'zining o'qishga, Vatanga, jamiyatga nisbatan majburiyatlarini ongli bajarish», «Burchlar – yaxshi o'qish, insonning yaxshi fazilatlarini egallash istagi, halol bo'lish» va hokazo.

Javoblarning anchagina qismi, sanab o'tilgan belgilar bo'yicha burch mohiyatini go'yo yoritisa ham asosiy mohiyatini aks ettirmaydi: ayrim talabalar burch e'tiqodga, zaruriyatga asoslanishi, majburiyatlarni ongli, ixtiyoriy ravishda bajarishni o'z ichiga olishi, harakatlanish istagida namoyon bo'lishi, quvonch uyg'otishini anglab yetmaydi. Haqiqiy javoblar: «Burch – nima bo'lganda ham bajarilishi shart bo'lgan ish», «Burch – bu o'qish, ishlash, oilani ta'minlash, farzandlarni davr talabiga mos tarbiyalash, o'zi va boshqalar yaxshi yashashi uchun hamma narsani qilish», «Burch – armiyada xizmat qilish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, halol yashash» va hokazo. Burch turlicha bo'ladi: oila, do'st, Vatan oldidagi va hokazo. Bu kabi me'yorlarning rasman bajarilishi ijtimoiy uyg'unlik mustahkamlanishiga ko'maklashadi, biroq bu hali burch emas, balki majburiyat, zero ular huquqiy tomondan ich-ichidan qabul qilinmagan, uning istagi, vijdon bilan qo'llab-quvvatlanmagan. Ma'naviyatli inson zavq, chuqur qoniqish hosil qilishi uchun burch ehtiyojga aylanishi lozim. Talabalarga uni aynan shu tarzda anglashda yordamlashish zarur.

Talabalarga burch mohiyatini tushuntirishdagi murakkablik uning mazmunan kengligi, talabalarning bir qismi burchni «va'daga vafo qilish», «qarzni o'z vaqtida qaytarish», «kattalar iltimosini bajarish», «do'stiga yordam berish», «chin do'st bo'lish» va shu kabilarda deb tushunishadi. Burchni shaxsiy hayot, kasbiy munosabatlar doirasida tushunish, kishilarni tub ijtimoiy muammolar yechimida chalg'itadi.

Shu sababli talabalarga ota-onalik, farzandlik, turmushda o'rtoqlik, do'stlik va boshqa burch turlari, ko'rinishlari ustun emasligi, balki unga to'liq bo'ysunishini tushunib yetishlarida yordam berish kerak. Bu sifatlarni o'zlashtirishda, ularning ahamiyatini samarali yoritishda Sharq mutafakkirlarining bu boradagi qarashlari, fikrlari, katta ko'mak bo'ladi. Olingan javoblardan ko'rinadiki, ko'plab talabalar «ma'naviy javobgarlik» tushunchasini ancha to'g'ri his etadi, angelaydi. Qolaversa, talabalarning bir qismi javobgarlik bilan qorishtirib, ularni teng deb biladi, boshqa bir

qismi esa javobgarlik burch, vijdon bilan belgilanishini anglamaydi. O'rganilayotgan muammoning murakkabligi va tarbiyadagi kamchiliklar sababli «sha'n», «qadr-qimmat», «umr mazmuni», «baxt», «insonparvarlik», «baynalmilalchilik», «vatanparvarlik» kabi ma'naviy sifatlarni idrok etish qiyin bo'lib tuyuladi.

Biroq bu o'rinda ham ko'plab talabalar javobgarlikning barcha turini tariximizni bilish jarayoniga yo'yadi, bu bilimlarni uzoq tariximiz va islomiy madaniyat rivoji bilan bog'laydilar.

1.3. O'zbek xalq pedagogikasi va diniy ta'limotlarning ijtimoiy tavsifi

Insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida ham doimiy harakat va rivojlanish mavjudlikning yetakchi omili ekanligini anglab yetgan. Shu sababli jismoniy harakatni tashkil etish orqali o'zining bugungi fiziologik-anatomik ko'rinishiga kelibgina qolmay, tana rivojiga muvofiq ruhiyatini ham boyitishga uringan. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichlarida ish qurollari takomillashgan, kishilar o'rtasidagi munosabatlar doirasi va hududi kengaygan sari odamlarning yashashdan maqsadlari – yeb-ichish va ko'payishga bo'lgan ehtiyojni qondirishdangina iborat bo'lmay qoldi. Ular yashash, tiriklikdan maqsad faqat yeb-ichish va ko'payishdan iborat bo'lishi kifoya emasligini tushuna boshladilar. Tabiiy kuchlarga qarshi kurashish, faol harakatlanish uzoq yillar davomida odamlar ongining rivojlana borishini ham ta'minladi. Ongning rivojlanishi esa yangi-yangi ehtiyojlar va ularni qondirishga bo'lgan intilish hissini yuzaga keltirdi. Rasm chizish, so'zlashish va yozish, shuningdek, yashash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga intilish odam ongining yanada rivojlanishi, ruhiyatining boyib borishini ta'minladi.

Turli diniy ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi esa odamning biologik mavjudot emas, balki faol ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Diniy ta'limotlar asosini ilohiyot tashkil etganligi sababli ilgari surilayotgan g'oyalar insonlarning ruhiy ehtiyojlarini qondira olish kuchiga ega bo'ldi. Ana shu jihatga ko'ra har qanday diniy ta'limotlar u yoki bu darajada kishilar ommasi tomonidan qabul qilina boshlandi. Aksariyat diniy ta'limotlarning negizida haqni tanish, o'zlikni anglash g'oyalarining ifodalanganligi insonlarda ularga nisbatan e'tiqodni shakllanishiga olib keldi.

Tarixiy shart-sharoit yoki geografik, hududiy yaqinlik, har bir xalq o'z millati bilan yaqin aloqada bo'lsa, unga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida o'ziga ham ta'sirlanadi. Madaniy taraqqiyot o'zluksiz davom etuvchi jarayon bo'lib, milliy an'analar, urf-odatlar, madaniy meros saqlanadi. Har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti

davomida yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyatini yangidan yaratmaydi, balki ajdodlardan qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat negizlariga tayanadi, ajdodlardan boyliklarni qabul qilib, ularni ijodiy davom ettiradi. Yangi qadriyatlarni yaratish uchun esa ajdodlar ma'naviy merosini o'zlashtirish zarur bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va vatanparvarlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. Insonparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi – insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.

Mustaqil, ma'rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni, xususan kasb-hunar kollej o'quvchilarini har tomonlama yetuk, axloqli, odobli insonlar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Pedagogik ta’lim Konsepsiyasi” talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish uchun zarur bo’lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirish lozim:

- ijobiy fazilatlar mohiyati va mazmunini to’g’ri tushunish hamda tahlil qilish, shaxsiy munosabatini bildira olish;
- jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;
- barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash va boshqalar.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixida “g'oyalar kurashi” sifatida muhrlandi. Bu yillarda turli kuchlar tomonidan o'z maqsadlarini ifodalovchi mafkuraviy qarash va g'oyalarni keng hududlarda yoyish orqali aholi, ayniqsa

yoshlarni ta'sir doirasiga olish harakatlari boshlandi. Bu harakatlar negizini asosan buzg'unchi g'oya, qo'poruvchilik kayfiyatini ifodalovchi qarashlar tashkil etdi. Dunyoqarashi yetarli darajada shakllanmagan, hayotiy tajribalari kam bo'lgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni o'zlarining hokimiyatga ega bo'lish, boylik orttirish kabi g'arazli maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi kurashga rag'batlantirish mafkuraviy tahdidlarning muhim jihati sanaladi. Aynan mana shu jihat o'ta xavfli sanaladi. Binobarin, hali borliqni to'la anglab yetmagan, muayyan e'tiqodga ega bo'lmagan yoshlarning turli g'oyaviy qarashlarga ergashishlari oson bo'lib, buning natijasida jamiyat ijtimoiy hayoti izdan chiqadi, milliy va etnik nizolar avj oladi, qurolli to'qnashuvlar yuzaga keladi. Shu sababli mafkuraviy tahdidlarning mavjudligi yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish va samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda ildizlari keng yoyilgan terrorizm, qo'poruvchilik, ekstremizm, giyohvandlik kabilar insoniyat boshiga, xususan mamlakatimiz xalqiga, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga yashash, o'qish va komil inson bo'lib voyaga yetishiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

1999 yil fevral oyida Toshkent shahrida yovuz terrorchi kuchlar tomonidan sodir etilgan portlashlar, 1999, 2000 va 2001 yillarning yoz faslida Afg'oniston hududida o'ziga uya qurib olgan terrorchi to'dalarning chegaralarimizga bostirib kirib qilgan hujumlari, 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent va Buxoro hamda iyul oyida yana Toshkentda uyushtirilgan terrorchilik aksiyalari, 2005 yil 13 may kuni Andijonda ro'y bergan vahshiyliklarda amalga oshirilgan jangarilik harakatlari kabilar O'zbekistonning ozodligi va tinchligiga qarshi tashkil qilingan mudhish voqyealar ekanligini hyech qachon unutmasligimiz va bundan tegishli saboqlar chiqarishimiz zarur. Bu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov muntazam ravishda ma'naviyat va mafkura dunyosida bo'shliqqa yul qo'yib bo'lmasligiga, shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan ma'naviy va mafkuraviy bo'shliq maydonida bizga begona, orzu-intilishimizga mutlaqo yot fikrlar

va g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz ekanligiga xalqimiz va jamoatchilik diqqatini qaratib kelayotgani bejiz emas.

Bu hayotiy xaqiqat o'zbek xalqi hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanib, o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etib, uning markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

Shuning uchun mazkur muammo ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Insonning jamiyatda ma'naviy muammolar bilan shug'ullanishdan oldin uning moddiy qiziqishlari, ehtiyoji ta'minlangan bo'lishi zarur. Insonni o'rab turgan muhit, moddiy hayot uning ongida o'z ta'sirini ko'rsatadi, o'z navbatida ma'naviy hayot, ma'naviy boyliklar qay darajada taraqqiy etsa, jamiyatning moddiy rivojlanishi, taraqqiyot darajasi shu qadar kuchayadi, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi va ma'rifiy savodxonlikka keng imkoniyatlar yaratiladi.

Insonga xos bo'lgan yaratuvchanlikning ikki asosiy turi – moddiy va ma'naviy yaratuvchanlik mavjud. Ana shu yaratuvchanlik turlari moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Har ikkala madaniyat turlari jamiyatning ijtimoiy ma'naviy madaniyatini tashkil qiladi. Moddiy ma'naviyat – moddiy faoliyatning samarasi, natijasi. Mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport aloqa vositalari va shu kabi moddiy ne'matlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga aqliy va ma'naviy yaratuvchanlik sohalari bilim, axloq, ta'lim tarbiya, huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, xalq og'zaki ijodi asarlari, din va shu kabilar kiradi.

Xalqning vatanparvarlik his-tuyg'ulari, uning ozodlikka va baxt-saodatga intilishi har bir O'zbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning davlat ramzlarida o'z ifodasini topgan. Davlatimiz ramzlari: bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni

mustahkamlash demakdir. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining avlod-ajdodlarining nomus-origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadriyat qimmat, madaniyati va an'alariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda o'z ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Qur'oni Karim va hadislarda keltirilgan inson ma'naviyati, uning asosi bo'lgan axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar mobaynida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. "Ma'lumki, din va din ahli ijtimoiy xayotimizda muhim urin tutadi. Islom dini – otabobolarimizning muqaddas e'tiqodi. U tufayli xalqimizning yillar mobaynida ma'naviyati, boy merosi va o'zligi omon saqlab kelingan", – deydi A.Erkayev. [40-67]

Dinning xalqimiz ma'naviyatiga, ruhiyatiga o'tkazayotgan hayot-baxsh ta'siri ma'naviyatga oid boy merosimizning qayta tiklanishida o'z aksini topgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy singari mutafakkirlarimizning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohozalari bugungi kunda har bir inson, ayniqsa, yoshlar uchun uchun qimmatli tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni boyitish yo'lida amalga oshirilgan harakat natijasi sifatida boy milliy meros namunalarini chuqur o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bu imkoniyat o'z navbatida o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos o'rin tutgan shaxslar faoliyatini o'rganishga sharoit yaratdi. Ulug' sohibqiron Amir Temur nafaqat o'zbek xalqi, balki Markaziy Osiyo hududida

yashovchi barcha xalqlarning tarixiy taraqqiyotini ta'minlashda ulkan hissasi bo'lgan shaxslardan biridir. Amir Temur fenomeni nafaqat jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashdagina aks etib qolmay, shu bilan birga yuksak ma'naviyatga ega shaxs timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi. Amir Temur ma'naviyatining eng ustuvor jihati uning davlat boshqaruvi hamda fuqarolarga bo'lgan munosabatda ham adolatga tayanganligidir. Bu holat sohibqironning kundaliklarida qayd etilgan quyidagi fikrlarda ham o'z tasdig'ini topgan: "Har bir mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim", "Barcha ishlarda, bu ishlar qaysi o'lka xalqiga taalluqli bo'lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berdim". [28-36]

"Kuch adolatdadir", "Rosti-rusti" ("Haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat") shiorlarining Amir Temur faoliyatida yetakchi o'rin tutganligi ham adolat sohibqiron faoliyatining asosiy mezoni bo'lib kelganligidan dalolat beradi.

XIII–XIV asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot adabiyotda mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlarini badiiy ifoda qilinishi bilan ajralib turadi. Tarixiy asarlar paydo bo'la boshladi va ularda o'sha davr aks ettirila boshlandi. O'zbek nasrining namunalari yuzaga keldi. Shu davrda Nasriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning "Qiscasi Rabg'uziy" asari yozilgan.[19]

Rabg'uziy anbiyolar payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi Sharq qissa va afsonalarini qayta ishlab, manzarali lavhalar, jonli tasvirlar, hiyla pishiq, his-hayajon va kechinmalarga boy obrazlar hosil qilgan. Asarda e'tiqod va imonga sodiqlik, pok insoniy axloqning badnafslilik, hirsu hasad, qonxo'rlik va nohaqliklar ustidan g'alabasi misollar orqali tasvirlanadi. Undagi qissalarda Shis, Muso, Iso, Sulaymon, Nuh, Dovud va boshqa payg'ambarlar, Horut va Morut kabi farishtalar, Qobil va Hobil singari shaxslar haqidagi turli-tuman voqyealar hikoya qilingan.

Asarda Qur'on syujetlari va hadislar g'oyalarining ijodiy davom ettirilishi asarning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy rolini yanada oshirgan. Asardagi qissa va

hikoyatlar kompozitsiyasi, ya'ni "Dovud qissasi", "Luqmon hikoyati", "Uzum hikoyasi", "Namrud hikoyati", "Sulaymonning qarinchg'a bilan so'rashgani", "Ilon va qaldirg'och" hikoyatlarining o'quvchilar tomonidan o'qib o'rganilishi, tahlil qilinishi o'quvchilarning bu boradagi bilimlari doirasini yanada kengaytiradi, ular uchun axloqiy tarbiya vazifasini o'taydi. Asarda "Qur'on" syujetlari va "Hadislar" g'oyalarining ijodiy davom ettirilish asarning ham ta'limiy ham tarbiyaviy rolini yanada oshirgan. Asardagi qissa va hikoyatlar kompozitsiyasi, ya'ni "Dovud qissasi", "Luqmon hikoyati", "O'zum hikoyasi" "Namrud hikoyati" "Sulaymonning qarinchg'a bilan so'rashgani". "Ilon va Qaldirg'och" hikoyatlarining o'quvchilar tomonidan o'qib o'rganilishi, tahlil qilinishi o'quvchilarning bu boradagi bilimlari doirasini yanada kengaytiradi, ular uchun axloqiy tarbiya vazifasini o'taydi.

Mashhur faylasuf olim, insonparvar shoir, Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan pahlavon "Puryoy vali" (aziz va mukarram) laqabini olgan Pahlavon Mahmud ijodi bugungi yoshlar uchun har jihatdan qiziqarli, foydalidir. Uning ruboiylarida insoniy fazilatlar o'ziga xos targ'ib qilinadi.

Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim,
 Yer qaro bag'riga botgan ko'p ko'rdim,
 Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,
 Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.
 Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil,
 Yo'lda quduq bordir, ehtiyoting qil,
 Do'st uyida mahram bo'lgan vaqtingda,
 Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi ming yillar davomida yaratilgan bulib, unda turli davrlarda bugungi davlatimiz hududida e'tiqod qilingan zardo'shtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy - axloqiy qadriyatlar majassamlashgan. Unda butun dunyoga mashhur Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Naqshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi

ko'plab buyuk mutafakkurlarning bilimi va salohiyati ko'rinib turibdi. Bu buyuk ma'naviy merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosiy ko'rinish tajribalari, ular qoldirgan me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at asarlari, halq urf-odatlar va an'analari uyg'unlashib ketgan.

Yettinchi asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan Qur'oni Karim islom dini ta'limotida bosh manba hisoblanadi.

Qur'oni Karim Alloh taolo tomonidan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga 23 yil mobaynida sura, oyat tarzida farishta – Jabroil alayhissalom orqali ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og'zaki nozil qilingan. Qur'oni Karimning oyatlari bir joyda emas, balki Makka, Madina, Toif, Juhfa, Baytil-maqdis, Hudaybiya kabi shaharlarda va Mino, Arafot, Badr, Uhud kabi joylarda nozil qilingan.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlik chog'larida aytgan so'zlari, qilgan ishlari, yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari, pand-nasihatu o'g'itlari – hammasi payg'ambar hadislari yoki sunnatlari hisoblanib, islom ta'limotida Qur'ondan keyin ikkinchi manbalar hisoblanadi. Chunki Payg'ambar alayhissalomning o'zlari ham: “Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni karim bilan o'zimning sunnatim – yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar bu ikkalasidan qattiq ushlab, ularga amal qilsangiz, to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysiz”, - deb bashorat qilganlar.

Shunga binoan barcha ahli musulmon shaxsiy turmush va faoliyatida, ayniqsa, biror mushkul vaziyatga duch kelgan paytda payg'ambar sunnatlariga amal qilgan holda ish tutish muqaddas burch va vojib hisoblangan. Hadislarni tarqatish va yoyishda payg'ambar alayhissalomning o'zlari aytgan, shuningdek u kishining fikr-mulohazalari, pandu nasihati, ko'rsatmalari haqida payg'ambar alayhissalomning yaqin qarindosh-urug'lari, sahobalari va safdoshlari aytgan hadislar oldiniga og'zaki holda el orasida tarqalib yurgan, keyinchalik, ya'ni hijriy ikkinchi asrning (melodiy VIII-asrning) o'rtalaridan boshlab ushbu hadislarni qog'ozga tushirib yig'ishga

harakatlar keng ko'lamda avj olib ketdi. Payg'ambar hadislarini to'plash, ularni sharhlash va targ'ib qilish bilan shug'ullangan olimlar – muhaddislar deb atalgan. Hadisshunos ulamolar (muhaddislar) o'rtasida ilk davrdan boshlab hadislarining to'g'riligiga, ularning ishonchli manba ekanligiga katta e'tibor berishgan. Chunonchi, o'sha davrning o'zidan boshlaboq noaniq, chala-chulpa, hatto to'qima va soxta hadislar ham el orasida tarqala boshlagan. Shunday paytlarda ular qayta-qayta obdon tekshirilib olimlarning tinimsiz mehnati natijasida asl (haqiqiy) holiga qaytarilib, yozma ravishda, qayd qilingan. Hadis ilmi bilan astoydil shug'ullangan olimlar qayerda bo'lmasin o'zlariga ma'lum bo'lmagan birorta yangi hadis borligini eshitib qolsalar, masofaning uzoq-yaqin bo'lishidan qat'iy nazar, qanchalik mashaqqatlarni yengib bo'lsa ham u joyga borib, o'sha hadisni bilgan kishi yoki roviyning o'z og'zidan eshitib yozib olishga harakat qilganlar. Hadislarni ishonchli manbalarga asoslanib, kamoliga yetkazib ilmiy ravishda tartibga solish - olimlar orasida eng sevimli, zaruriy mashg'ulot darajasigacha yetgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, VIII asrning o'rtalaridan boshlab g'oyatda rivojlanib ketgan hadislar bilan keyingi ikki-uch asr davomida to'rt yuzdan ortiq mualliflar shug'ullangan.

Aytishlaricha, janobi payg'ambarimiz Qur'on oyatlari bilan aralashib ketishidan hadiksiraganlaridan, o'z davrida hadislarini to'plashga ruxsat bermaganlar. Abu Bakr Siddiq yozib borgan hadislarini esa, yo'q qilib yuborgani haqida rivoyatlar bor. Oqibatda ilk bor yozilgan hadislardan hych narsa qolmagan. VIII asr boshida, - deb ma'lumot beradi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi I.Abdullayev, Madina, Basra, Kufa va Damashqdagi hadis to'plovchilar va uni biladiganlarni "kitobiylar" deb atashgan. Bu yillar orasida eng mashhurlari Ibn Shihob az-Zuhriy /vafoti 767 yil/, Yahyo ibn Sa'd al-Anvariyy /vafoti 760 yil/, Ibn Jurayj /vafoti 758-?/. Ular rivoyatlarga suyanganlar. Ammo to'plagan hadislarini to'plam shaklida saqlanib qolmagan.

Hijriy uchinchi (melodiy to'qqizinchi) asrda hadis ilmida katta muvafaqqiyatlarga erishildi. Chunonchi, avvallari hadisshunos olimlar o'z asarlariga

o'zlari eshitgan hadislarini tanlab (toifalarga bo'lib tartibga solmay) o'tirmay qatorasiga kiritaverardilar. IX asrga kelib esa ko'plab muhaddislarning sa'iy harakati bilan hadislar boblarga va toifalarga bo'linib, ularning to'g'ri va ishonchli (sahiyh)lari alohida ajratilib yaxlit bir to'plamlar yaratildi. Bu borada ko'plab yutuqlar qo'lga kiritilganligi uchun IX asr hadis ilmining rivojida "oltin davr" hisoblanadi. Chunonchi, butun islom dunyosida eng nufuzli manbalar, deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sahiyh as-sitta) mualliflari ham asosan mana shu asrda yashab ijod qilganlar. Bu borada dastlab yuksak faoliyat ko'rsatgan Imom al-Buxoriy (810-870), imom Muslim ibn Hattot (819-874) kabi mashhur muhaddislar o'zlarining butun islom olamiga mashhur bo'lgan "al-Jome' as-sahiyh" deb ataladigan mashhur hadislar to'plamlarini yaratadilar. Hadislarni maxsus boblar va bo'linmalar asosida to'plab kitob yozish kabi sharaflari ushbu allomalar boshlab berdilar. Ushbu muhaddislarga ergashib asar yaratgan imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817-888), imom Ahmad an-Nasoniy (830-915), imom ibn Mojja al-Qazviniy (834-886) kabi mashhur olimlar ham as-Sahiyh (bu asarlar "As-Sunan" nomi bilan ham yuritiladi) nomi bilan asarlar yaratib hadis ilmining rivojiga katta hissa qo'shdilar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur oltita mashhur muhaddisning ikki nafari, asosiylari O'rta Osiyo zaminidan chiqib ijod qilgan olimlardir.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda asosan o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalar tarixining nazariy manbalari, ilmiy asoslari, xalq pedagogikasida ilmning o'rni tahlil etilib, quyidagi xulosalar chiqarildi :

1. O'zbek xalq pedagogikasi xalqning tarixida mavjud bo'lib, ilm hamda donishmandlikning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

2. Islom ta'limoti, ahkamlari, ba'zi hadislarda inson ilmi, aqli-zakovatining tahliliga oid bo'lgan fikrlar mavjud. Ushbu fikrlar ko'p olimlarning bahs munozaralariga sabab bo'lgan.

3. Ba'zi hadislarda ulamolar, so'fiy olimlar inson aqlinining o'lchamini, xususiyatlarini va darajalarini aniqlashtirishga harakat qilganliklari haqida fikrlari mavjud.

4. Islom ta'limotida hadislar yordamida inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish masalalari rivoj topgan.

5. Islom dini ta'limotida tarbiyaviy vositalarning rolini aniqlash orqali insonning ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish ishlarini ko'pchilik allomalar muhim deb bilganlar.

6. O'zbek xalq pedagogikasi manbalarida inson tarbiyasining turli yo'nalishlariga e'tibor qaratilar ekan, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslariga ham e'tibor qaratiladi.

7. Islom dini bilan bog'liq mashhur maktablar paydo bo'lishi bilan turli diniy oqimlar, so'fiylik nazariyalari, tariqat va tasavvuf yo'nalishlariga asos solindi. Bu yangiliklar o'z navbatida ustoz-shogird, xususan tarbiyaviy qarashlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

8. Xalq tarbiyaviy an'analari xalq ta'limi ta'sirida shakllangan dunyoqarashlarni, e'tiqodni o'zida aks ettirishi tabiiy pedagogik jarayondir.

9. Movarounnahrda VII-IX asrlarda islom dini o'z rivojlanish bosqichlarini shakllantira boshlaydi. Masalan, mazhablar vujudga kelish davri o'z taraqqiyotini boshidan kechirdi.

10. Asrlar o'tishiga qaramay hadislardan, ularning mazmunidan foydalanish ishlari hozir ham davom ettirilmoqda, rivojlantirilmoqda, shuning uchun ham muhaddis ulamolarning hayoti va faoliyati o'rganish davr taqozasidir.

II-BOB. XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTI NAZARIYASINING MAZMUNI

2.1. Xalq an'analarining rivojlanish mazmuni va xususiyatlari

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda inson fan va texnika taraqqiyoti tufayli tog'larni qo'porishga, daryolar o'zanlarini burib yuborishga, yangi sun'iy dengizlar yaratish, katta-katta cho'l-biyobonlarni gullab yashnayotgan vohalarga aylantirish bilan bir qatorda, avvalgi ekinzorlar o'rnida cho'llarni qoldirmoqda. O'quvchilarga bevosita Orol dengizining taqdiri to'g'risida gapirib, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiyasining buzilib ketishi, insonlarga juda katta moddiy, ma'naviy, tibbiy zarar yetkazayotganligini aytish joiz.

Tabiat va tabiat boyliklari kishilik jamiyati yashayotgan, rivojlanayotgan ba'zi odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan dastlabki manbadir. Inson tabiat va tabiiy zaxiralardan foydalanmay yashay olmaydi.

Xuddi shunga o'xshash xalq pedagogikasi materiallarini o'rganishda o'quv-tarbiyaviy ishlarning roli katta ahamiyatga ega. Xalq pedagogikasi materiallari yordamida bola o'z xalqining o'tmishi bilan uning urf-odatlarini va an'analari, xalqning bayramlari, jamiyatga munosabatlari bilan yaqindan tanishadi. Xalq pedagogikasi uslubiyotidan, jumladan ertaklardan so'z nutqini rivojlantirishda foydalanish o'quvchilarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, haqiqatgo'ylik va kishilarga nisbatan hurmat ehtirom ruhida tarbiyalashning muhim mashg'ulotlaridan biridir.

Xalq ertaklari folklorning boshqa janrlari kabi yozma adabiyotning shakllanishi va rivoji uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Xalq tomonidan yaratilgan turli yo'nalishdagi ertaklar shu janrdagi zamonaviy san'at, yozma adabiyot janrlari, masalan, povest, novella, ocherk va romanlar yaratilishi uchun asos bo'lgan. Ma'lumki, inson fikrlash tarzi an'ana va novatorlik dialektikasiga

muvofig rivojlanadi. U avloddan - avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy boyliklardan kuch oladi. Bunday boyliklar jumlasiga xalq og'zaki ijodi asarlari kiradi. Yozma adabiyot vakillari o'z ijodiy faoliyatlari davomida folklor asarlaridan o'zlariga xos an'anaviy mezonda foydalanishgan va ularni qayta ishlaganlar. Shunday bo'lmaganda, an'anaviylik qonuniyati buzilar edi, badiiy ertaklar hayotiyiligini yo'qotardi. Huddi shuning uchun ham badiiy so'z ustalari original badiiy ertaklar yaratgan holda xalq ertaklari janriga xos qonun qoidalariga bo'ysunganlar yoki asarlari tarkibiga ertaklarga xos bir qancha xususiyatlarni olib kirganlar.

Adabiy ertaklar (badiiy mualliflik) ni xalq ertaklari bilan qiyosiy taqqoslash natijasida, biz bu ertaklardan foydalanishda ikki xil yo'l tutilganligini ko'rdik.

Birinchiidan, badiiy asarlar ertak janrining barcha belgilari aks ettirilgan holda yaratilishi mumkin.

Ikkinchiidan, badiiy ertaklar an'anaviy uslublar shaklidangina foydalanib yaratiladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Bobur, Gulxaniy va boshqalarning xalq ertaklari shakl va formalaridan, g'oya va obrazlaridan mohirlik bilan foydalanganliklari buning yorqin misolidir. Ularning uslubi va tilidan shuni sezish mumkinki, ular xalq orzu - umidlarini ifodalash yo'lida xizmat qiladilar. Masalan, A.Navoiy "Xamsa" dostonlarini yaratishda xalq ertaklari syujetlaridan, g'oya va obrazlaridan foydalandi. "Farhod va Shirin" dostonining kirish qismida u, bu asarni yaratishda o'zidan oldin o'tgan kishilarning, xalq og'zaki ijodining boyliklaridan samarali foydalanib, rohatlanganligini tan oladi. Bu poema shoir ijodining original mahsuli bo'lib hisoblanadi. Unda xalq o'rtasida keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Xisrav va Shirin"da ertak, doston, afsona va masallarning mazmunidan keng va o'ziga xoslik bilan foydalanilgan. Buyuk mutafakkirning "Farxod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-

tayr” kabi dostonlarining ildizlari ham xalq ijodiga borib taqaladi, ertaklar Navoiy ijodiga kuchli ta’sir ko’rsatganligini shundan ham bilish mumkin.

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat a’zolari, ayniqsa bo’lajak mutaxassislariga ma’naviy sifatlarini tarbiyalashning yangidan-yangi pedagogik imkoniyatlarini izlash zarurligini ko’rsatmoqda. Bu esa o’z navbatida, islohotlarning ishtirokchisi, murakkab sharoitda ham o’ziga qulay yo’l topa oladigan ma’naviyatli mutaxassislarni yetishtirish zaruriyati bilan bog’liqdir. Demak, bugungi talabalar, ya’ni bo’lg’usi o’qituvchilarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalanmasdan turib, umumiy o’rta ta’lim maktablarida ma’naviy yetuk, barkamol insonni shakllantirish mumkin emas. Shu jihatdan qaraganda, insonning ma’naviy sifatlarini tarbiyalashda xalqning milliy, ma’naviy, madaniy, tarixiy merosi katta ahamiyat kasb etishi, mustaqillik yillaridagi dastlabki tajribalardan ayon bo’lmoqda. Darhaqiqat, ijtimoiy-pedagogik meros va mutafakkirlarning yoshlarda ma’naviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan fikrlari va qarashlaridan pedagogikada unumli foydalanish maqsadida, talabalarning mavjud ma’naviy tushunchalari darajasidan kelib chiqqan holda, pedagogika tarixida bir qator yangi o’quv materiallari va ma’lumotlar bilan boyitish zaruriyati mavjudligini aniqlandi. Zero, bugungi kunga qadar oliy ta’lim muassasalarida pedagogika tarixi kursi o’quv dasturiga kirmagan bir qator ma’lumotlar va manbalar talabalar ma’naviy sifatlarini tarbiyalashda boy pedagogik imkoniyatlarga ega degan, ilmiy faraz asosida mazkur kurs mazmunini boyitildi. Bu manbalarda ilgari surilgan fikrlar, qarashlar bugungi kunda talabalarda – insonparvarlik, adolatparvarlik, iymon, e’tiqod, burch va mas’uliyat, ezgulik, hamdardlik, xayrihohlik, vatanparvarlik, shafqatlilik, samimiylik, saxiylik, sofdillik, sabr-qanoatlilik, go’zallikni his etish, rahm-shafqat, nafsni tiyish, sadoqat, kamtarlik, andishalilik, hilm, xushmuomalalik, sharm-hayo, g’amxo’rlik, mehribonlik, do’stlik va o’rtoqlik, mehnatsevarlik, mardlik, ziyraklik, zukkolik, shijoat, intizom, qadr-qimmat, munislik, muhabbat, muloyimlikdan, bilim, ilmga ehtiyoj, ilmiy tafakkur, salohiyat, aql-zakovat, kasbga mehr, hunar, iste’dod,

ona tiliga muhabbat kabi ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Ma'lumki, o'rta asrlar musulmon olamining ilmiy tafakkuri tiklanishi va rivojlanishi jarayonida eng yirik markazlar: Bag'dodda –Muhammad Muso al-Xorazmiy rahbarligidagi «Bayt ul hikma» (Donishmandlik uyi); Xorazm poytaxti Gurganjda «Majlisi Ulamo» («Bilimlar uyi»), shuningdek, Samarqandda Ulug'bek akademiyasi, Marvda Nasriddin Tusiy maktabi yaratilishi bilan bog'liq uch asosiy davr kuzatiladi. Bu ilmiy markazlar dunyo ilm-fani va umuman davr ma'naviy-ma'rifiy tafakkuri rivojida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, IX asrda arab xalifaligi parchalanib ketgach, Markaziy Osiyo mustaqillikka erishdi. Arab istilosidan birinchi bo'lib xalos bo'lgan Somoniylar davlati edi. Keyinchalik bu hududda Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari barpo etildi. Buxoro, Samarqand, Marv, Gurganj, Xiva va boshqa shaharlar o'z davrining madaniy markazlari sifatida shuhrat qozondi. Ularda nafaqat savdo-sotiq va hunarmandchilik, balki ilmiy markazlar ham rivoj topdi, madaniy aloqalar mustahkamlandi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra X asrning ikkinchi yarmida Xorazm: Shimoliy va Janubiy qismga bo'lingan. Shimoliy Xorazm poytaxti Gurganjda amir Ma'mun ibn Muhammad hukmron bo'lsa, Janubiy Xorazm – Qiyotda Xorazmshohlar hukmronlik qilgan.

995 yilda Gurganj amiri Ma'mun ibn Muhammad Xorazmni yaxlit bir davlatga birlashtirdi. Natijada, Markaziy Osiyo, Eron, Arabiston, Hindiston, Sharqiy Yevropa va Shimoliy–G'arbiy Osiyo davlatlari: bulg'orlar, Rus, Ural va G'arbiy Sibir qabilalari bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqalar tiklandi. Bu, Xorazmning yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Kutubxonalar barpo etilib, o'sha davrdagi barcha mashhur adabiyotlar jamlandi. Qiyot, Gurganj, Xiva shaharlarida madrasalar ochilib, ularda ko'plab mashhur olimlar, mudarrislar faoliyat ko'rsatdi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan, yaratilgan asarlarda Sharq xalqlariga xos bo'lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug'lash yetakchi rol

o'ynagan. Insonparvarlik g'oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta'lim-tarbiyani amalga oshirish asosiy masala qilib qo'yilgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish zarur ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, tarixchi-yu, shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi.

Ruhshunos, axloq masalalariga katta hissa qo'shgan buyuk alloma, Ma'mun akademiyasining yirik namoyandalaridan biri Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniy al-Masihiy (977–1011 yy.) bo'lib, hayoti va ilmiy ijodi davomida ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullangan, lekin fan tarixida ko'proq tabib sifatida mashhur.

Abu Sahl al-Masihiy tibbiyot sohasiga oid asarlar yozish bilan bir qatorda, ma'naviy tarbiya masalalariga murojaat qilib, quyidagi fikrlarni bildirgan. «Odam zamondoshlarining eng yaxshi sifatleri vositasida o'zini shakllantiradi. Inson har qancha aqlli bo'lmasin, jamiyat uchun foydali ish qilmasa, u komil emas. Inson ko'p bilsa yaxshi, biroq u o'z bilimlarini kengaytirsam, buyuk bo'ladi. Aqllining xatti-harakati har yerda o'rinli, nodonning harakatlari doimo xavfli», - deydi u. «Agar odam o'zini yaxshi bilsa, bu ajoyib sifat, ammo u o'z bilimini yanada tinmay oshirib borsa, bunda u haqiqatan ham, ulug' odam bo'lib yetishadi». Olimning bu fikrlari ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan qimmatli.

Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiyning ilmiy–ma'rifatchilik faoliyatidagi asosiy xizmati tarixda Beruniydan keyin umumjahon fanlarini shariat ilmidan ajratib, har bir fanni umumlashtirib, ilmiy xulosalar qilgani, ilg'or g'oyalarni ilgari surganidadir. Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z asarlarida farzandlarni yaxshi tarbiyalash, ularga bilim berishga katta ahamiyat beradi. Ularni o'z oldiga xolis niyat qo'yib, kelajakka ishonib yashash lozim deb ta'kidlaydi. Yomon odatlardan, ayniqsa, sharobxo'rlikdan saqlanish, go'zal odatlardan bahramand bo'lishga undaydi. Abu

Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy ijodiga I.Yu.Krachkovskiy qomusiy manba sifatida yondashgan. U.I.Karimov, M.M.Xayrullayev, G.P.Matviyevskayalar ham o'z ishlarida Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy asarida ilmlar tasnifining berilishi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlarni keltirganlar.

Asarning «Kimyo» bo'limini U.I.Karimov, riyoziyotga oid bo'limini G.P.Matviyevskaya, jo'g'rofiyaga oid boblarini S.Hasanov, mexanikaga oid bo'limini M.M.Rojanskaya, mantiqqa oid bobini A.Sharipov, she'riyat va aruzga oid bo'limini M.Ziyovuddinova tadqiq qilganlar. Asarning mazmuni va ahamiyati haqida birinchi marta R.Bahodirov o'zbek tilida ilmlar tasnifini nashr ettirganlar. [11]

Ma'naviy yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni shakllantirish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan bo'lib, ma'naviy xislatlarga ega bo'lish muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligi, uni har bir insonda tarbiyalash birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Yuksak ma'naviyat uchun kurash murakkab jarayon. Zero, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlamasdan, uning har bir a'zosida yuksak ma'naviy sifatlarni rivojlantirmasdan turib farovon va madaniy hayotni qurish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashni davlatimizning yangilanishi va taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'kidlagan. [6]

Ma'naviy qadriyatlar-jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini boshqarish va tartibga solish tizimining uzviy bo'g'ini. Chunki dunyoqarash, bilim, e'tiqod, u yoki bu xatti-harakat uyg'un bo'lishi bilan birga, ayni paytda u insonda shakllanadi ham. Inson o'z g'oya, fikr va qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi. Shu sababli har bir inson, har bir jamoa faoliyatida ma'naviy qadriyatlar yangi jamiyatni qurish va uni mustahkamlash yo'lida aniq ishlar bilan uyg'unlashishiga erishmoq lozim. Oliy insoniy qadriyatlarni individual xulq-atvor sohasidan izlash kerak. Ta'kidlash joizki, yoshlarda oliy insoniy qadriyatlarni muntazam tarbiyalash muhim vazifa ekan, bunga ma'lum psixologik xulq-atvor me'yorlarini ular ongiga izchil tarzida singdirib borish orqali erishish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida jamiyatni yanada demokratlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda, bu jamiyatni ma'naviy-axloqiy takomillashtirish muammolarini har tomonlama aniq va yanada chuqur o'rganishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqil O'zbekistonning kuch qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir». [5,6,7]

Mustaqillik bizga keng ufqlarni ochdi, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish, o'z taqdirimizni belgilash, o'z hayotimiz va umumiy uyimizni milliy manfaat va qadriyatlarimiz, umum tomondan tan olingan demokratik tamoyillarga javob beradigan qilib obod etishga sharoit yaratildi..

Xalqimizning ildizlari qadim tarixga borib taqaladigan ma'naviy qadriyatlari azaldan umuminsoniy yuksak fikr va g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Ma'naviyat muammolari bilan shug'ullanadiganlarning bugungi vazifasi - ajdodlarimiz tomonidan asrlar osha to'plangan ma'naviy boyliklarni yosh avlodning chinakam mulkiga aylantirish, bu bilan yoshlarni ma'naviy barqaror, o'z Vataniga sodiq qilib tarbiyalashdan iborat.

An'anaviy pedagogik madaniyat jabhasidagi materiallarni tanlashda bolalar va o'smirlarning tushuncha va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish ko'riladi. Ruhshunos olimlarimiz ta'kidlaganidek, barcha o'quvchilarning doimiy faoliyatda fikrlov xotirasi mashqlariga, tasavvuriga, yangi tasavvurlarga, hayajonlanishga ehtiyojlar bo'ladi, kichik yoshdagi o'quvchilarda esa bu ehtiyoj ichki bosqichda faoliyatdan voqyealarga nisbatan fikrlov ehtiyoji (nima sababdan, nima uchun, qanday qilib) va o'z-o'ziga baho berish tarzida ko'riladi. O'smirlik yoshida o'z-o'zini ko'rsatish ehtiyoji kattalar bilan munosabatda, shaxs sifatida namoyon bo'lishda seziladi. O'smirlik yoshida hayot ma'nosini izlash, o'z ahloqiy fikrlarini aniqlash va hokazolar ehtiyoji namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialini tanlaganda, shu jumladan, ularni o'tmish xazinasidan izlamoqchi bo'lgan muallim hamisha o'z o'quvchilari ehtiyojini ko'zlab ish

tutishi: ularning bilimi darajasida yangi materiallarni o'rganishga bo'lgan imkoniyatini va ehtiyojini hisobga olmag'i lozim.

Xalq tarbiyasi ijobiy tajribalaridan foydalanish tajribalarini tahrir qilish, qiyinchilik va yetishmovchiliklar natijalari bizni xalq tarbiyasi shakl va vositalari mazmunidan foydalanishning asosiy tamoyillarini tahlil qilishimizga olib keldi.

Darhaqiqat, vatanparvarlik insonning murakkab tuyg'usi, eng yuksak ahloqiy sifatlaridan biri bo'lib, u o'zida mehnatga insoniy munosabat bilan yondoshish, jamoaga el bo'lish, mardlik va baynalmilallikni ifodalaydi. Bizning yosh avlod yangi mustaqil jamiyat quruvchilaridir. Istiqloq, hurlik fuqarodan yuksak g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy va madaniy saviyani talab etadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularni milliy g'oyalarni anlab yetishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkir pedagoglarning ta'limoti asosida xalq og'zaki ijodi durdonalarini o'rganishdan maqsad, avvalo o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasidan bahramand bo'lish, uning ma'naviy boyligini ilmiy jihatdan holisona baholash, hozirgi zamon pedagogikasini takomillashtirib borishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan madaniy merosning ilg'or namunalardan keng foydalanish, jamiyatning mustaqil davlatchilik yo'lidagi iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga, yoshlarning vatanparvarlik va salbiy illatlar, har qanday xavf-xatarga murosasizlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qilishi zarur.

Mutafakkir, pedagog allomalar madaniy merosga tanqidiy va ijobiy yondashish, taraqqiyotga xizmat etadigan g'oyalarni rivojlantirishga zid bo'lgan g'oyalardan ajratish, ma'naviy boyliklar majmuasiga ko'r-ko'rona yondashmasdan, uni yangi mavzu bilan boyitish asosida merosni saqlash va cheklanib qolmaslikka da'vat etganlar.

Binobarin, milliy madaniyatni rivojlantirishda davomiylik, birinchidan, badiiy merosni inkor etmaslik, aksincha uni har tomonlama o'rganib borish va

o'zlashtirish, ikkinchidan, yangi ijtimoiy-iqtisodiy qurilish talablari, mustaqil jamiyatda insonparvarlik tarbiyasi vazifalariga hamohang va tanqidiy yondashgan holda ijodiy foydalanish demakdir.

O'zbek xalq pedagogikasining an'analari qadimdan o'zida chuqur mazmun va mohiyat kasb etgan bebaho ma'naviy xazina tarzida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Madaniy merosdan, uni shakllantirish va rivojlantirish yo'lida foydalanishning asosiy tamoyili, o'zida jamiyat muvaffaqiyatlarini aks ettiradigan yangi ma'naviy - madaniy qadriyatlarni barpo etishdan iboratdir.

Jamiyat moddiy-ma'naviy boyliklarini demokratik asosda takomillashtirish va ko'paytirish xalq madaniy merosini rivojlantirishning muhim vazifasidir.

2.2. Xalq pedagogikasi va islom dini manbalarining tarbiyaviy roli

Avval eslatib o'tganimizdek, hijriy uchinchi asr (melodiy to'qqizinchi) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanib, dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etdi. Payg'ambar alayhissalom sunnatlarining mana shu davrdan boshlab tadvini rivojlanib, bu holat hadis ilmi taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Chunki mana shu paytdan boshlab payg'ambar alayhissalom hadisi shariflari birvarakayiga to'planib qolmasdan, balki ular saralanib, toifalarga bo'lina boshladi. Ular sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh) kabi guruhlarga bo'linib, chuqur tadqiq qilingan holda ilmiy tarzda tartibga solina boshlandi.

O'z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan bu xayrli ishni Imom at-Termiziy chuqur ma'suliyat va katta idrok bilan davom ettirib, hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhaddislardan biri darajasiga ko'tarildi. Muhaddislik ilmini egallash o'z davrida juda katta kuch va matonat talab qiladigan soha hisoblangan. Bugungi kunda esa biz faqat o'sha sohani tadqiq etishimiz, xulosalar chiqarishimiz mumkin.

Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam ezgulik va olijanoblik kuchini o'z shaxsiy hayoti orqali ko'rsatib berishga intilganligi, barcha mo'minlarni yer yuzida yaxshilik qilishga chaqirganligi hammamiz, ayniqsa yoshlarimizni tarbiyalash jarayoni uchun ibratlidir. Shubhasiz, uning qudratli e'tiqodiga, pok iymoniga, xayrli ishlariga turli xalqlarning qiziqishi bejiz emas.

Ma'lumki, Rasululloh barcha insonlarning ham moddiy, ham ma'naviy to'kis bo'lishini orzu qilgan, Alloh nomidan mana shu yo'lda kishilarni diyonatga, rost bo'lishga chaqirish yo'lida kuch-g'ayratini sarflagan edi. Alloh elchisining ibratli ishlari, ma'rifat, e'tiqod, adolat, xolislik, poklik va boshqa insoniy fazilatlariga

tegishli ibratli so'zlari, pand-nasihatlari uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassam bo'ldi.

Masalan, ba'zi hadislarda mol-dunyo, boylik, aniqrog'i iqtisodiy masalalar tarbiyaviy holatlarda yoritilganini ko'rishimiz mumkin:

Abdulloh ibn Umardan /r.a./ rivoyat qilinadi: «Rasululloh solallohu alayhi vasallam don boshloqlari oqarmasdan va ofatdan omon qolgani bilinmasdan daladagi hosilni sotishni man' qildilar, sotuvchini ham, oluvchini ham bundan qaytarganlar»

“Rasululloh aytdilar: Yetimlarning mollarini ham savdoda aylantirib turinglar, zakot uni yeb tugatmasin.”

Ushbu hadislarining tom ma'nosida, zamirida katta mazmun borligi pedagogik fanlar rivojiga xizmat qilishi tabiiydir.

Tadqiqotimizdan ko'zlangan bosh vazifalardan biri esa, ana shu hadislardan kelib chiqadigan holatlarni tahlil etib, muhaddislik ilmining tarbiyaviy imkoniyatlarini, pedagogik-psixologik jihatlarini yosh avlod ongiga yetkazish, tarixiy merosdan unumli foydalanish shakllari va uslublarini ishlab chiqishdir.

«Hadisni jamlash va uni kitob holiga keltirishda asli turk bo'lgan marvlik alloma Abdullo ibn Muborak al – Marvaziy (vafoti 182 hijriy, 796 milodiy yil) katta ishlarni amalga oshirgan va birinchi bo'lib ayrim hadislar roviylariga tanqidiy nazar bilan qaragan. Bu haqda suriyalik olim Nuriddin Atar o'zining Termiziy haqida yozgan “Sharh ilal at–Termiziy” nomli asarida dalillar keltiradi. Abdullo ibn Muborak al – Marvaziyning hadis sohasida yozgan kitoblari bizning zamonamizgacha yetib kelmagan, ammo uning bu sohada ulkan xizmatlar qilgani ma'lum va mashhurdir. Marv, Poykand, Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlar fozillarining hadis sohasidagi xizmatlari ayniqsa ikkinchi hijriy asrda katta ahamiyat kasb etdi. Bu davrda asossiz ravishda har xil munosabat bilan hadislarini to'qish va uni payg'ambar aytdilar deb da'vo qiluvchilar ko'paydi. Shuning uchun endi har bir hadisning aslini aniqlash zarurati tug'ildi».[33-9]

Hadislarni rivoyat etuvchi kishilar “roviy” deyiladi. Uning hadisi qabul etilishi uchun u adolatli bo’lishi, islomda bo’lishi va qoidalarini bilishi, balog’atga yetganligi, aqli raso bo’lishi, taqvodorligi, yodda saqlaydigan bo’lishi shart qilib qo’yilgan. Roviylarning tarjimai hollari qattiq tekshirilgan, ularning siyratlari /jurh va ta’dil/ haqida kitoblar yozilgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eng ko’p hadis rivoyat qilgan sahobiyalar quyidagilar: Abu Hurayra /r.a./ - 5374 ta hadis, Abdulloh ibn Umar /r.a./ - 2630 ta, Anas ibn Molik /r.a./ - 2286 ta, Oisha /r.a./ - 2210 ta, Abdulloh ibn Abbas – 1660 ta, Jobir ibn Abdulloh /r.a./ - 1540 ta, Abu Said Xudriy /r.a./ - 1170 ta hadis rivoyat qilishgan.[35-143]

Bu hisoblar bo’yicha jami 16870 ta hadis rivoyat qilingan. Lekin turli manbalarda bu son o’zgarishi kuzatiladi. Qolaversa, ularning ko’pchiligi takroran keltirilgan bo’lishi mumkin. Masalaning yana bir jihati hadis yig’ish o’sha davrning ko’p ulamolari tomonidan amalga oshirilgan, ularning ishlari ommaga yetib kelmagan, deb xulosa qiladigan bo’lsak, hadislarning soni juda ko’p bo’lishi tabiiydir.

Misol tariqasida quyidagi hadisni keltiramiz: - Rasululloh, mening mol-dunyom bor, merosxo’r farzandim ham bor. Otam esa mol-dunyomni sovurib yuborayapti, - dedi bir kishi.

- Sening o’zing ham, mol-dunyong ham otangniki-ku, - dedilar. /Ibn Moja rivoyati/.

Ushbu hadis asnosida Imom at-Termiziyning quyidagi hadisi vujudga keldi:

- Otaga ko’rsatilgan eng katta hurmat uning do’stlarini izzat qilmoqdir.

Masalan, Imom at-Termiziy tomonidan yozilgan “Ash-Shamoil-an-nabaviya” asarining ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa payg’ambar alayhissalomning ichki dunyosi va axloqiy fazilatlarini bayon qiladi. Bu hadislar bilan tanishar ekanmiz, Muhammad alayhissalomning axloqiy jihatlaridan namunaviy, mukammal bir zot ekanligini, muomalada uning kattalaru-kichiklar, ayollaru-erkaklar, boylaru-kambag’allar bilan o’zini bir xilda tutishi, ro’zg’or va oila

yumushlarida o'z xotinlariga astoydil ko'maklashib yordam berishi, basharti biror gunoh qilib qo'ygan kishi uzr so'rasa, uning gunohini kechirishi, barcha odamlar bilan o'ta latofat bilan muomalada bo'lgani, yo'lida uchragan barcha kishilarga birinchi bo'lib salom berib, hol-ahvol so'rashganligini bilib olamiz.

Asarda payg'ambarimiz alayhissalomga mansub yuksak insoniy fazilatlar, xususan, u zotning go'zal xulqi muboraklari, har qanday tahsinga sazovor sifatu-siyratlari haqida to'la va mukammal ma'lumot keltirilgan. Bular hammasi zamondoshimiz, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga molikdir.[36-26]

Insonparvarlik va demokratizm g'oyalari hadislarning tub mazmunida yuqori o'rin egallaydi. Shuningdek, u to'la ma'noda tarbiyaviy manfaatlarni ifodalab, boshqa barcha pedagogik fikrlar va tarbiyaning uslub hamda vositalarini targ'ib qiladi. Hadislar - butun tarbiyaviy jarayonni qamrab olib, ularni xalq tarixi, xalq falsafasi va xalq tibbiyotidan, tafakkuri va o'ylaridan alohida ajratib olingan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Pedagog olim Q.B.Qodirov o'z tadqiqotida: "...hadislardan pedagogik jarayonda foydalanish bugungi kunda bizga ularni o'rganishning quyidagi mavzularini ta'kidlab o'tadi:

- hadislarni tahlil etish yuzasidan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar, tajribalarning rolini oshirish ;
- hadislarni o'rganishda xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanishning ijobiy tomonlarini aniqlash;
- hadislarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan milliy g'oyalarning rivojlanish jarayonlarini pedagogik jihatdan ochib berish va tahlilini o'tkazish;
- hadislar yordamida tarbiyalash jarayonining ijobiy tomonlarini tavsiflash;
- hadislarning pedagogik rivojlanish xarakterini asoslash;
- hadislarda mavjud bo'lgan insonparvarlik tarbiyasi sifatlarini aniqlash va o'rganish;

- hadislarning tarbiyaviy imkoniyatini aniqlash;
- hadislardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha tarbiyalash uslublarini, vositalarini aniqlash;
- hadislarning mohiyati va maqsadi;
- hadislarning tanlangan qismlaridan maqsadli foydalanish;
- talabalarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishda hadislar pedagogik vosita sifatida ekanligi va hokazolar". [23-57]

Bizning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi va darsdan tashqari tadbirlardagi kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yoshlarda faqatgina xalqimizning emas, balki boshqa xalqlarning ham diniy qadriyatlari, odatlari, an'analari, bayramlari, xalq og'zaki ijodi katta qiziqish uyg'otadi.

Milliy bayramlar, urf-odatlar, an'analar, diniy qadriyatlar asosida esa ta'lim-tarbiyaning ko'p asrlik uslub va vositalari mavjudligini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning hayoti hamda uning boy ilmiy, ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Illatli hadislar hususida imom al-Buxoriyning ustozlari Ali ibn Abdulloh ad-Madiyniy, imom Ahmad ibn Hanbal, imom al-Buxoriy, imom Muslim, Abu Hotam va boshqalar asarlar yozganlar. Mana shu buyuk muhaddislar orasida ham imom at-Termiziyning ilal to'g'risidagi asari hadislarning siqasi (to'g'riligi, aniqligi)ni tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Imom at-Termiziyning o'zlari "Ilal" masalasi hususida: "Bu (ilal) masalada uzoq vaqt fikr-mulohaza yuritdim, buning boisi shundaki, bizdan shu xususda so'ralganda, oldin o'z nuqtai nazarimizni ochiq-oydin aytmadik. Sababi – birinchidan, bizdan avval ilal masalasi hususida so'ralgan bir qancha ulamolar ham o'z fikrlarini bildirmaganlar, ikkinchidan ba'zi muhaddislar o'rtalarida roviylarning xato, yanglish va vahmlarini aytish g'iybat bo'ladi, degan ulamolar ham bor edilar. So'ng odamlar manfaatini o'ylab, bir qancha mashhur muhaddislar, xususan Imom

al-Buxoriy ila bir necha yillik muloqotda bo'lganimdan so'ng hamda mazkur fikrga aloqador rivoyatlarni eshitganimdan keyin ilal masalasini oshkora qilishga jazm qildim. Na Iroqda va na Xurosonda ilal, tarix va isnodlar sohasida imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan bilimdonroq kishini ko'rmadim", - deydilar.

Ilm-fanda "hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imom al-Buxoriy at-Termiziyning ustoz va safdoshi bo'lgan. Shu boisdan ham ushbu allomaning hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim topdik.

Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardaxbeh al-Jaufiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13 kuni (180 yil 20 iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shulki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmi odamlaridan bo'lib o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususdan ham uning aniqligiga hych shubha yo'q. Al-Buxoriyning yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sadi. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manba'larda ko'rsatilishicha, u o'n yoshlik chog'idan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh abn-al-Muborak va Vakiy' kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib yodlagan, o'z ustoz Shayh Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825 yili o'n olti yoshli al-Buxoriy o'z onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l oladi.[23]

Muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab hadis ilmidan astoyidil ta'lim oladi. Shundan keyin o'z bilimni yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qoxira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar bilan ilmiy bahslar va munozaralarda qatnashish bilan ayni vaqtda ilm toliblariga dars ham

beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi horijiy ellarda o'tib ilm talabida u Sharqning ko'pgina shaharlarida bir necha martadan bo'ladi. Bu haqda uning o'zi quyidagicha rivoyat qilib: "Misr, Shom, Mesopotamiyaga ikki martadan, Basraga esa to'rt marta borganman, Hijozda olti yil yashaganman. Bag'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganimning hisobini ham bilmayman", degan ekan. U safarda chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham hadislar to'plash va o'z ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, olgan bilimlarini oqqa ko'chirar edi. Olimning yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha oying nurida ijod qilib, qorong'i kechalari sham yorug'ida kitob yozar ekan, ilhomi yo'q paytlarda shamni o'chirar, agar behhosdan yangi fikr-mulohaza xayoliga kelib qolsa shamni yoqib darhol qog'ozga tushirar – shu tahlitda ba'zi kechalari shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqqan hollari ham bo'lgan ekan. Bu holatlar al-Buhoriyning ilm-fanga katta ixlos bilan o'zining butunlay fido qilganligidan yorqin bir dalildir.

Ilm olish borasida al-Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik olim al-Hakimning (vafoti 1015 yil) yozishicha uning ustozlari soni to'qson atrofida bo'lib, ular jumlasidan Muhammad Ibn Yusuf al-G'ayrobiy, Ubaydullo Ibn Musa al-Abasiy, Abu Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Rohavayh nomi bilan mashhur bo'lgan imom Is'hoq ibn Ibrohim, imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'z navbatida al-Buxoriy ham ko'pgina shogirdlarga ustozlik qilgan. Is'hoq Ibn Muhammad ar-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr Al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar ham uning shogirdlaridan bo'lgan. Termezlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh sifatida bo'lib ularning o'zaro munosabatlari ibratli bir hol bo'lgan. Uzoq yillar sharqning turli-tuman mamlakatlarida safarda bo'lganidan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh yil (863-868) Nishopurda yashab madrasada hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqdagi eng yirik

ilmiy markazlaridan biri bo'lganidan ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar.

At-Termiziy o'z ustozini va safdoshi al-Buxoriyning butun umri davomida hurmatlab unga samimiy sadoqatda bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahobiyning (1274-1347) "Tazkirat ul-xuffoz" ("Xofizlar haqida tazkira") nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'u-alamga botib, "ko'p yig'laganidan hatto ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashadi", degan so'zlarini keltirish kifoyadir.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim bo'lgan, balki u o'zining go'zal xulqi-atvori, odamoxunligi, muruvvati, purhimmati va beqiyos sahovati kabi yuksak fazilatlari bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. Imom al-Buxoriy zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyatda shuhrat qozongan. Manba'larda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xorijiy ellardan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik uni hurmat qilgani bilan ba'zi bir hasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyning ko'ra olmas edilar. Hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib "Al-jome' as-sahih", "At-ta'rix" kitoblarini o'qib berishini talab qiladi. Lekin al-Buxoriy: "Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa o'zi izlasin. Lekin Olloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi", degan javobni aytadi. Amirga bu javob yoqmay, fitnachi, bo'htonkor shaxslar gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark qilishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va birmuncha muddat shahar yaqinidagi Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari, qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasalga chalinib hijriy 256 yil (melodiyda 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshda vafot etadi

va shu yerda dafn qilinadi. Uning qabri davlat tomonidan muhofaza etiladigan ziyoratgoh tabarruk jolardan hisoblanadi.

Imom al-Buxoriy biz avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahiyh”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag’iyr”, “At-ta’rix al-avsot”, “At-ta’rix al-kabiyr”, “Kitob al-kabiyr”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko’rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari shubhasiz, uning shoh asari “Al-jome’ as-sahiyh”dir. Bu asar “Sahiyh al-Buhoriy” nomi bilan ham mashhurdir.

Asarning g’oyatda ahamiyatli tomoni shundaki, imom al-Buxoriygacha o’tgan muhaddislar o’z to’plamlariga eshitgan barcha hadislarni tanlab o’tirmay qatorasiga kiritaveradilar. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo’lib, ularning ishonchli (ya’ni, sahiyh)larini alohida ajratib mustaqil kitob yaratadi.

Alloma ibn as-Salohning ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo’lib, takrorlanmaydigan holda esa taxminan 4000 hadisdan iborat.

Bu sharafli ishni birinchi bo’lib al-Buxoriy boshlab bergan bo’lib, undan keyin qator olimlar unga taqlid qilib shu zaylda hadislar to’plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo’lgan bo’lsa ham o’sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o’rinda turadigan muhim manba’ sifatida yuqori baholanib kelmoqda. Imom al-Buxoriyning ushbu asari muhim manba’ hisoblanib turli shaharlarda uning nusxalari ko’p tarqalgan. Hatto o’rta asrlarda yashagan ba’zi adib va xattotlar uchun bu asar nusxalarini ko’chirish tarikchilik manbai vazifasini ham o’taganki, bu haqda yozma manba’alarda ham ayrim aniq ma’lumotlar uchraydi. Jumladan taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (u 1332 yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko’chirib, har birini ming dirhamdan sotgan bo’lib, ulardan sakkiz

jilddan iborat 1325 yilda ko'chirilgan go'zal bir nusxasi hozir Istambulda saqlanmoqda.[23]

Movarounnahrda IX asrda qishloq xo'jaligining dehqonchilik, chorvachilik turlari, savdo-sotiq bilan bir qatorda hunarmandchilik hamda sanoat ishlab chiqarishi ham rivojlanib bordi. Bu yerda qo'shni davlatlarga tarqalgan sovun ishlab chiqarilardi, shuningdek, parcha, qishlik kamzullar, teri, mis idishlar, quy juni, mo'yna, yelim, qilich, qalqon, sovut, gilam, qiyiq, mis qozon, qadahlar, igna, qaychi, ipak matolar, idishlar hamda mashhur Samarqand qog'ozi tayyorlanardi.

Shuningdek, Movarounnahr Sharqda ilm-fan, madaniyat, din, musiqa va san'at sohasining rivoji bo'yicha ham markaziy davlatlardan biri edi.

O'sha davrda islom dini va arab tili bilan bog'liq mashhur maktablar paydo bo'ldi, turli diniy oqimlar, so'fiylik nazariyalari, tariqat va tasavvuf yo'nalishlariga asos solindi.

Sharq "Uyg'onish davri" ham o'sha vaqtlarga to'g'ri keldi. Qanchadan-qancha maktablar yaratilar ekan, ilmiy asoslangan, rivoyatlarga tayanadigan, xalq an'analari va qadriyatlarini asosida shakllanadigan ilk pedagogik yoki ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar hamda qarashlar yuzaga kela boshladi.

Ma'rifatga ixlos va ahamiyat ajdodlarimiz jamiyatida ancha ilgari boshlangan edi; arablar islom dini bilan birga yangi bilimlarni ham keltirdi. Bular ichida hadis ilmi keng quloq yoydi. Shaklan arab hokimlarga qaram bo'lgan Turkiston xalqlari hunarmandchilikni rivojlantirish barobarida yangi ilmlarni ham o'zlashtirdilar va bu sohada tezda arablardan ko'ra balandroq pog'onaga ko'tarildilar.

Islom dini esa o'z rivojlanish bosqichlarini shakllantira boshlaydi. Masalan, mazhablar vujudga kelish davri o'z taraqqiyotini boshidan kechirdi. Hozirgi vaqtlarda ham borada bahs, munozaralar bormoqda. Bu to'g'risida bir oz to'xtalishimiz zarur.

Hanafiy mazhabining asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit hijriy 80 (milodiy 699) yilda Ko'fa shahrida savdogar oilasida tug'ilgan /Ba'zi rivoyatlarda imom Abu Hanifaning otasi Ko'faga Termiz shahridan ko'chib borgan degan ma'lumotlar mavjud/.

Xalifa Xorun ar-Rashid davrida /747-748 yillarda/ Abu Hanifani Iroq voliyi Ibn Xubayr davlat ishlariga, qozikalonlikka xizmatga olish uchun ko'p harakatlar qilgan. Abu Hanifa qozilikda ishlasam, nohaq ishlarga qo'shilib, gunohga qolaman, deb qozi bo'lishdan bosh tortadi.

Imom Abu Hanifa o'z otasining kasbi ipak-shoyi savdosi bilan shug'ullangan, shuningdek fiqh ilmining mukammal egasi sifatida mashhur bo'lgan.

Abbosiyilar davlat tepasiga kelgach, Abu Hanifa Basra shahriga ko'chib keladi. Abbosiylar xalifasi Mansur /754-755/ Abu Hanifani Iroqning poytaxti Bag'dod shahrining qozikaloni lavozimiga ishga taklif etadi. Ushbu taklifga ko'nmagan "Ahli sunnat val-jamo'a"ning kelajakda birinchi imomi bo'ladigan fiqh olimi Abu Hanifani ishlashga ko'ndirish uchun qamab qo'yishadi.

Aba Hanifaning "Musnad" nomli hadislar to'plami, "Fiqhul-akbar" yoki "Asl at-Tavhid", "Fiqh ul-Absat", "Al-olim va al-mutaallim" kabi asarlari bor.[35-15]

Ushbu asarlarda islom olamining fiqh, shariat, nikoh, jamiyat, turmush tarzi masalalari bayon etilib, ularning turli talqinlariga sharhlar berilgan.

2.3. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari tahlil etishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari

Tadqiqot ishimizning boshida A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti talabalari orasida «Siz o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari haqida nimalarni bilasiz?» mavzusida og'zaki ravishda o'tkazgan so'rovnomamizda 37 talabadan 19 talabaning u haqda umuman ma'lumotga ega emasligi, 8 talaba bu haqda qisman javob berganligi, 10 nafar talabaning esa javoblari ijobiy deb baholanganligi ma'lum bo'ldi.

Bu ko'rsatkichlar ta'lim muassasasida o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari yetarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Lekin, SamDU Pedagogika fakulteti yo'nalishida mutaxassis tayyorlashini biz albatta hisobga olishimiz zarur, deb qaradik. Qolaversa, biz tadqiqot-tajriba ishlari va ulardan kelib chiqadigan xulosalarni kelajakda faqat ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatadigan yoshlar uchun emas, balki keng ommaga, imkon darajasida, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatadigan yosh avlodning ham ongiga singdirishga harakat qildik.

Tadqiqot davomida o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yuzasidan tavsiya, ko'rsatma va maslahatlar berib, reja asosida pedagoglar jamoasi uchun tushuntirish ishlari olib bordik.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda biz talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

№	Savollar
1.	O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari deganda nimani tushunasiz ?
2.	O'zbek xalq pedagogikasi siz uchun nimani anglatadi ?
3.	O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotining qanday asarlarini bilasiz ?
4.	O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik

	g'oyalarning yoshlar uchun qanday ahamiyati bor ?
5.	Qanday hadislarni o'qigansiz yoki bilasiz ?
6.	Tarbiya jarayoniga oid qanday hadis va rivoyatlarini bilasiz ?

Talabalar bilimi 100% lik tizimda baholandi. Natijada eng quyi va yuqori o'zlashtirish darajalari 15% va 85% ni tashkil etdi.

Tajriba boshidagi va tajriba oxiridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari talabalar foizlarini mos ravishda x_i va y_i lar orqali hamda ularga mos kelgan talabalar sonini esa n_i va m_i lar orqali belgilab olib, quyidagi ikki statistik taqsimotlarni hosil qilib olamiz:

Tajriba – sinov boshidagi ma'lumotlar:

$$x_i: 15, 30, 40, 50, 55, 60, 70, 80, 85$$

$$n_i: 11, 16, 20, 26, 22, 22, 22, 16, 21$$

Tajriba – sinov so'ngidagi ma'lumotlar:

$$y_i: 15, 30, 40, 50, 55, 60, 70, 80, 85$$

$$m_i: 2, 8, 12, 26, 26, 30, 34, 14, 24,$$

Har ikki tanlanma (respondentlar soni) hajmi

$$N = \sum_{i=1}^{10} n_i = 200, \quad M = \sum_{i=1}^{10} m_i = 200$$

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish maqsadida dastlab har ikki variasion qator bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblab chiqamiz:

$$\bar{x} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^{10} n_i x_i = \frac{1}{200} (11 \cdot 25 + 16 \cdot 30 + 20 \cdot 40 + 26 \cdot 50 + 22 \cdot 55 + 22 \cdot 60 + 22 \cdot 70 + 16 \cdot 80 +$$

$$24 \cdot 90 + 21 \cdot 95) = \frac{1}{200} (275 + 480 + 800 + 1300 + 1210 + 1320 + 1540 + 1280 + 2160 + 1995) =$$

$$\frac{12360}{200} = 62 \%$$

$$\bar{y} = \frac{1}{M} \sum_{i=1}^{10} m_i \cdot y_i = \frac{1}{200} (2 \cdot 25 + 8 \cdot 30 + 12 \cdot 40 + 26 \cdot 50 + 26 \cdot 55 + 30 \cdot 60 + 34 \cdot 70 + 14 \cdot 80 + 24 \cdot 90 + 26 \cdot 95) = \frac{1}{200} (50 + 240 + 480 + 1300 + 1430 + 1800 + 2380 + 1120 + 2160 + 2470) = \frac{13430}{200} = 67,15\%$$

Demak, absolyut o'rtacha farq $\bar{y} - \bar{x} = 67,15\% - 62\% = 5,15\%$ ni tashkil etadi. Endi har ikki statistik tanlanma bo'yicha tajriba – sinov ishlari xatoliklarini hisoblashga o'tamiz. Dastlab tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz.

$$S_x^2 = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^{10} n_i (x_i - \bar{x})^2 = \frac{48300}{200} = 241,5$$

$$S_y^2 = \frac{1}{M} \sum_{i=1}^{10} m_i (y_i - \bar{y})^2 = \frac{41140}{200} = 205,7$$

Standart og'ish ko'rsatkichlari:

$$S_x = \sqrt{241,5} = 15,5$$

$$S_y = \sqrt{205,7} = 14,3$$

Variasion ko'rsatkichlar:

$$V_x = \frac{S_x}{\bar{x}} \cdot 95\% = \frac{15,5 \cdot 95\%}{62} = 23,7\%$$

$$V_y = \frac{S_y}{\bar{y}} \cdot 95\% = \frac{14,3 \cdot 95\%}{67} = 20,2\%$$

Har ikki statistik tanlanma bo'yicha variatsiya ko'rsatkichlari 25% dan kichik. Bu esa o'z navbatida tajriba–sinov ishlari qoniqarli ekanligini ko'rsatadi, bu ko'rsatkich tajriba so'ngida boshidagiga nisbatan

$$V_x - V_y = 23,7\% - 20,2\% = 3,5\% \text{ yuqoridir.}$$

Biz yuqorida tajriba–sinov ishlari o'rta qiymatlari farqli ekanligini ko'rsatgan edik. Endi ularga mos kelgan nazariy (noma'lum) μ_x va μ_y o'rta qiymatlar tengligi haqidagi $H : \mu_x = \mu_y$ gipotezani Student mezonini orqali tekshiramiz. Unga mos statistika qiymati:

$$T_{N,M} = \frac{\bar{y} - \bar{x}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{N} + \frac{S_y^2}{M}}} = \frac{(67 - 62) \sqrt{200}}{\sqrt{241,5 + 205,7}} = \frac{71}{21} = 3,4$$

Demak, H gipoteza rad etilib, deyarli muqarrar ravishda $\mu_x \neq \mu_y$ va yuqoridagi hisoblardan kelib chiqqan holda esa, doimo $\mu_y > \mu_x$, ya'ni tajriba–sinov ishlari so'ngida o'rtacha ko'rsatkichlar doimo yuqori bo'lishligiga ishonch hosil qildik, ya'ni tajriba–sinov ishlari boshidagi hamda so'ngidagi natijalar talabalarning mavzu yuzasidan bilimlari, tushunchalari bir–biridan tubdan farq qilib, yuqoridagi qiyosiy statistik tahlilni hisobga olgan holda olib borilgan pedagogik tajriba ishlari samaradorligi mavjuddir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalarini o'rganish, talabalarning bo'lg'usi pedagog sifatida shakllanishiga yana bir bor ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni ma'naviy yuksak, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligi isbotlanib, talabalarning ma'naviy jihatdan rivojlanishi 3,4 % ga o'sganligi kuzatildi.

A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida pedagogika fanlari yo'nalishida, xususan, Pedagogika tarixi, umumiy pedagogika, xalq pedagogikasi darslarida, shuningdek ma'naviyat soatlarida, professor-o'qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan ochiq mashg'ulotlarda o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari bilan mavzularni o'rganish, mazmun jihatidan qo'llash, ular asosida talaba yoshlarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan turli shakllar bugungi kunda ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Masalan, "Pedagogika tarixi" fanidan 3-bosqich talabalariga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan uslubiy shakl yordamida ochiq dars o'tkazish tavsiya etildi va dars yakunida talabalar bilimining o'zlashtirish samarasi o'sganligi kuzatildi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari mavzusini o'rganish, mavzuning amaliy jihatlarini tadqiq etish va tajriba sinovlar o'tkazishda, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ta'lim-tarbiya ishlarining rivojlanishiga sabab bo'lgan g'oyalarni chuqur tahlil etishda uni atroflicha mantiqiy baholash, imkon darajasida tarixiy merosimizning ilmiy-nazariy asoslaridan foydalanish uslublarini izlash zaruriyati yuzaga keldi.

2. Turli mualliflarning ma'lumotlari, tahlili o'rganilishi natijasida tarixiy manbalarni tadqiq qilishning ilmiy-pedagogik jihatini rivojlantirishga yo'naltirish muhimdir.

3. VIII-XI asrlarda Vatanimiz diniy, dunyoviy, falsafiy, pedagogik ilmlarni yuksaltirishda Osiyodagi boshqa davlatlarga qaraganda yuqori o'rin egallagan. O'sha davrda islom madaniyatining shakllanishi muhim ilmiy hodisadir, xususan, muhaddislar Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Is'hoq ibn Rohvayh Marvaziy, Muhammad ibn Bashshor; faqih olimlar Abu Saxl Saraxsiy, Abu Hafsl Kabir Buxoriy, tafsirshunos Abdulkarim Bazdaviy, faylasuf-tarixchi Abu Nasr Forobiy, tibbiyot allomasi Ibn Sino, arab tili muammolari bilan shug'ullangan Javhariy, Az-Zamahshariylarning fanlar rivojida ilmiy mehnati pedagogik fikrlar, qarashlar rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi, deyish mumkin.

8. Imom Termiziy o'z zamonasining mufassirlari va muhaddislari bilan uchrashib, faqat hadisning matni emas, uning mazmuni hamda falsafasini tushunib yetishga harakat qilgan va hadislarning xilma-xillarini tahlil qilish darajasini egallagan allomadir.

10. Hadislarning son jihatdan ko'pchiligi asosan oila, oilaviy tarbiya masalalariga qaratilgandir.

14. Islom ta'limotining tarbiyaviy masalalari, pedagogik-psixologik jihatlari yosh avlodni tarbiyalashda tarixiy meros sifatida muhim vosita bo'lib hisoblanishining ilmiy-nazariy jihatlari mavjuddir.

15. Insonparvarlik va demokratizm g'oyalari hadislarning tub mazmunida yuqori o'rin egallaydi. Shuningdek, u to'la ma'noda tarbiyaviy manfaatlarni o'zida ifodalay oladi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limoti ijtimoiy-pedagogik g'oyalari tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy davr ta'sirida shakllandi. Ular birgalikda ma'naviy meroslarimizdan biri hisoblanmish – an'ana va odatlar, milliy marosimlar va islom dinilarning tub mohiyatini tushunib yetishga, ularning pedagogik imkoniyatini namoyon qiladi hamda yoshlarimizni tarbiyalashda ijobiy jihatlarni shakllantirishi ma'lum bo'lishini isbotlay oldi.

Biz shunday davrda yashayapmizki, bu davrda fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada rivojlanmoqda va shular asosida qiziqarli ilmiy kashfiyotlar vujudga kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda tarbiyani pedagoglar, filosoflar, psixologlar va sosiologlar, gigiyenistlar va boshqalar birgalikda o'rganmoqlari lozim. Lekin bular orasida pedagogika fani hal qiluvchi o'ringa ega. Pedagogka fani fakat pedagogik tadqiqotnigina emas, balki tarbiya jarayoni va tarixining rivojlanishi, shaxsning shakllanishini o'rganuvchi boshqa fanlar uchun ham qimmatlidir.

Tarbiya yosh avlodni jamiyat hayotiga tayyorlash vositasidir. Tarbiyaviy jarayon jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari bilan amalga oshiriladi. Bularning hammasi muhim pedagogik qonunlarni belgilashga asos bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining o'zi ijtimoiy tarbiya va shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalash bilan kelishadi, ya'ni uni korrektirovka qiladi. Shunday ekan, ijtimoiy rivojlanish qonunlarini, ya'ni, mustaqil respublikadagi ijtimoiy hayotning o'zgarishi, jamiyatning insonlarga qo'ygan talablari va boshqalarni bilmasdan yosh avlodni tarbiyalashni to'g'ri tashkil qilish mumkin emas. Ijtimoiy rivojlanishni boshqarish uchun tarbiyaviy vazifalarni ham yechish kerak. Albatta tarbiya jarayonining maqsadi, sharoitlari, obyekti, shuningdek shaxs shakllanishining vositalari yo'l va metodlarni jamiyat belgilaydi. Jamiyat haqidagi hamma fanlar kompleksini bilmasdan turib, pedagogika o'zining konkret pedagogik muammosini tadqiqot sifatida hal etishi uchun ijtimoiy-pedagogik g'oyalar va qarashlar muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham pedagogik metodologiyani, ilmiy dialektikani va pedagogika tarixini ijtimoiy-pedagogik g'oyalari ta'sirida rivojlanishini bilmay turib, pedagogik tadqiqot bilan jiddiy shug'ullanish mumkin emas.

Biz tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Vatanimiz tarixida ulug' siymolar hisoblanmish ma'naviyat-ma'rifat darg'alari, ta'lim-tarbiya ijodkorlari, xalq tarbiyachilarining ilgari o'rganilmagan hayoti va ijodini tahlil qilish, ularning boy ilmiy merosidan oqilona foydalanishning yangi zamonaviy pedagogik imkoniyatlarini keltirib chiqardi.

2. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasida xalq pedagogikasi g'oyalari, islom dinining beqiyos manbalari asosida yosh avlodni milliy qadriyatlar, an'analar ruhida tarbiyalash imkoniyatini va zaruriyatini paydo qildi.

3. Hadislarda oila va jamiyat, huquq, insonlararo munosabatlar, tarbiya masalalariga oid rivoyatlar ko'p davrlar o'tishiga qaramasdan hozir ham ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan yangi mazmun kashf etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida to'laqonli ishtirokchi bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

4. O'sib kelayotgan yosh avlodni ota-bobolarimizning ilmiy merosi asosida o'qitish, tarbiyalash ishlarini tashkil etish maqsadida hadislarning boy olamidan foydalanish - talabalarni milliy jihatdan tarbiyalashda ijobiy vositalardan bo'lib hisoblanishi ta'kidlandi.

5. Ma'naviy yetuk inson rivoji bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik jarayon hodisa sifatida tobora zaruriyat kasb etib, mazmun va mohiyati jihatidan diniy qadriyatlar g'oyasini ifodalovchi tarbiyaviy tizimni vujudga keltirgan.

6. Islom dinining bebaho yozma manbalari Qur'oni Karim va hadislarni o'rganish, ilmiy-nazariy va tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilish, asoslash, keng ommaga mo'ljallangan asarlar yozish, fikr va mulohazalar bayon qilish, tadqiqotlar olib borish milliy mafkuramizning tarbiyaviy jihatiga aylantirildi.

7. Hadislarda nafaqat rivoyatlarni islomiy jihatdan to'g'ri bayon qilish, balki yosh avlodning ongiga ularni singdirish, ijtimoiy jihatdan hadislarning jamiyatdagi o'rni, milliylik tushunchalari, insonparvarlik, o'zaro munosabat masalalari ularda shakllantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1997, №9.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida /Tarix, ma'rifat, ma'naviyat/. Buyuk allomaga ehtirom /444-448 betlar/. – T.: O'zbekiston, 1998. – 479 b.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida /Tarix, ma'rifat, ma'naviyat/. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman qatnashchilariga tabriknoma. 1990 yil, 14 sentyabr. – T.: O'zbekiston, 1998. – 479 b.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // Ma'rifat. – 2007 yil, 1-sentyabr. № 70 /7991/
8. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997, №9.
9. Aleuova R.Sh. Amir Temurning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. diss. ... – Toshkent, 2006. - 129 b.
10. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar): Tarix muallimlari, talabalar va yuqori sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2001. – 352 b.
11. Ahmedova M.E. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash: Ped. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2008. – 149 b.
12. Axrorova Z.B. Pedagogicheskiye vzglyadi i prosvetitel'sko–prakticheskaya deyatelnost Maxmudxodja Bexbudi: Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. – Tashkent, 1997. – 21 s.

13. Babashev F.A. Mutafakkirlarning pedagogik merosi va uning pedagogika fani rivojlanishidagi ahamiyati. – T.: Fan, 1995.
14. Babashev F.A. Nравственно-просветительские взгляды ученых Хорезмской академии Мамуна: Автореф. diss. ... канд. ped. nauk. - Tashkent, 2000. – 20 s.
15. Barkamol avlod orzusi / Nashr uchun mas’ul: T.Risqiyev; Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahmidinov; – T.: Sharq, 1999. – 181 b.
16. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis: Al-jomi’ as-sahih /Ishonarli to’plam/. Tarj. Z.Ismoil; prof.N.Ibrohim va M.Kenjabek tahriri ostida. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. T. I., 1997. – 560 b.
17. “Dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot: O’zbekiston tajribasi” mavzuiga bag’ishlangan konferensiya materiallari. Nyu-York. “Jahon” AA. // Xalq so’zi. – 2007, 11-oktyabr, № 201 (4354).
18. Jo’zjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O’rta Osiyo faqihlari /mas’ul muharrirlar: A.X.Saidov, A.Mansur/. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002. – 255 b.
19. Kabirov A. Jahon tarixi. Eng qadimgi davrdan milodning V asrigacha /6-sinf uchun darslik. – T.: O’qituvchi, 2001. – 336 .
20. Kadirov B.A. Tradisionnaya pedagogicheskaya kultura uzbekskogo naroda /Istoriya. Teoriya. Praktika./. Monografiya. Moskva, 1992. – 308 s.
21. Qilicheva K.Yu. Bahouddin Naqshbandning ta’limiy-axloqiy qarashlari: Ped. fan. nomz. diss. ... – Toshkent, 2004. – 25 b.
22. Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziyning muhaddislik faoliyatiga doir // Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2008. № 1. – B. 93-96.
23. Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziyning muhaddislik faoliyati va tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2008. – 141 b.
24. Mavlonova R.A., To’rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. –T.: O’qituvchi, 2001 y.
25. Mamadaliyev S. Imom Buxoriy ta’rifi. – T.: Cho’lpon, 1996. – 24 b.
26. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O’zbekiston, 2001. – 80 b.

27. Mirtursunov Z.F. O'zbek xalq pedagogikasi. –T.: Fan, 1973 y.
28. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur / O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
29. Nishonova S. Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dokt. diss. ... -Toshkent, 1998. – 202 b.
30. Ortiqov N. Ta'lim va islom: yoshlarni tarbiyalashdagi muammolar va yechimlar. /Monografiya/. – T.: “Fan”, 1994. – 123 b.
31. Radjabov S.R. Klassicheskoye ucheniye o vospitaniye i obucheniye. –T.: Fan, 1971 g.
32. «Sunani Termiziy». Hadislar to'plami. VI jildlik. I-jild. Tarjimon M.Kenjabeq (Kenjaboyev M.T.) – T.: Adolat, 1999. – 688 b.
33. Termiziy, Abu Iso. Sahihi Termiziy: Tanlangan hadislar /Arab tilidan tarj. va so'zboshi A.Abdulloniki: Mas'ul muharrir A.M.Musabek. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1993. – 208 b.
34. Toshkent – islom madaniyatining umumjahon poytaxti. “Jahon” AA // Xalq so'zi. 2007 yil 10-yanvar. № 7 /4160/
35. Tursun A.M., Juman M.Sh. Islom dini. – T.: Movaraunnahr, 2006. – 223 b.
36. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1994. – 93 b.
37. Uvatov U. Ikki buyuk donishmand (Abu Iso at-Termiziy, Al Hakim at-Termiziy). – T.: Sharq, 2005. – 80 b.
38. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchilar: K.Hoshimov, S.Ochil. 1-jild. – T.: O'qituvchi, 1995. – 460 b.
39. Haydarov M.E. Mehnat tarbiyasi vositasida xalq milliy an'analaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari (kichik yoshdagi maktab o'quvchilari misolida): Ped. fan. dokt. diss. ... – Toshkent, 2001. – 247 b.
40. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: Ma'naviyat, 1997. – 217 b.
41. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994. – 25 b.

42. Hoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 82 b.

43. Kiyamov N., Burxanova F. O'zbek xalq pedagogikasida g'oyalar ta'limoti va tarixini o'rganish xususida. "XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari"ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T.: O'zbekiston milliy universiteti bosmaxonasi, 2012. – 54 b.